2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 206 (1805), 2026-yil 6-oktabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

YAPONIYADA BO‘LIB O‘TGAN XX YOZGI OSIYO O‘YINLARIDA ISHTIROK ETGAN O‘ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI A’ZOLARIGA

Hurmatli sportchi va murabbiylar!

Qadrli farzandlarim!

Siz, azizlarni Yaponiyaning Aichi-Nagoya shahrida bo‘lib o‘tgan XX yozgi Osiyo o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, tom ma’noda tarixiy natijalarni qo‘lga kiritganingiz bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, yurtimizga yorug‘ yuz, yorqin g‘alabalar bilan qaytib kelganingiz muborak bo‘lsin!

Sizlar Osiyo mintaqasining 45 davlatidan 11 mingga yaqin sportchi ishtirok etgan, g‘oyat keskin kurashlar ostida o‘tgan ushbu nufuzli musobaqada chinakam mahorat, jasorat va matonat fazilatlarini namoyon etib, mamlakatimiz sporti tarixida yana bir buyuk sahifa ochdingiz.

Milliy terma jamoamiz 21 ta oltin, 25 ta kumush va 24 ta bronza medal bilan Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindiston bilan birga qit’amizning eng kuchli beshligi safidan joy olgani Yangi O‘zbekistonning sport sohasidagi ulkan salohiyatidan, mard va bahodir farzandlarimizning qanday ulug‘ ishlarga qodir ekanidan dalolatdir.

Bu, hech shubhasiz, barchamizga, ko‘p millatli xalqimizga cheksiz g‘urur bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston ushbu o‘yinlarda Markaziy Osiyo va Islom hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida birinchi o‘rinni egallagani ham tahsinga sazovor.

Dastlab Abdulvahob Rashidov karate, Shohsanam Sherzodova kanoeda eshkak eshish va O‘tkirbek Jo‘rayev sport gimnastikasi bahslarida Osiyo o‘yinlaridagi ilk oltin medallarimizni olgani terma jamoamiz a’zolarini yuksak marralar sari ruhlantirdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yengil atletikachimiz Suhrob Xo‘jayev bosqon uloqtirish yo‘nalishida Osiyo o‘yinlarining oltin medalini qo‘lga kiritgan birinchi o‘zbek sportchisi bo‘ldi.

Yana bir yengil atletikachimiz Sharifa Davronova, bokschimiz Abdumalik Xalokov ikki karra, badiiy gimnastikachimiz Taxmina Ikromova uch karra Osiyo o‘yinlari chempioni bo‘ldi va qit’ada tengsiz ekanini isbotladi.

Akademik eshkak eshish bo‘yicha jahon chempionatida tarixiy oltin medalni qo‘lga kiritgan Shahzod Nurmatov va Sobir Safaroliyev juftligi Osiyoda ham yetakchilikni saqlab qoldi.

Mardi maydon yigit-qizlarimiz Osiyo va jahon rekordini yangilab, sport tarixiga o‘z nomlarini zarhal harflar bilan muhrlab qo‘yganlari barchamizni mamnun etadi. Jumladan, afsonaviy og‘ir atletikachimiz Akbar Jo‘rayev 197 kilogramm natija bilan jahon va qit’a rekordini yangilashga erishdi.

Vladimir Svechnikov O‘zbekistonga o‘q otish bo‘yicha Osiyo o‘yinlarining ilk oltin medalini tuhfa qildi.

Dzyudochimiz Muzaffarbek To‘raboyev finalda yaponiyalik nomdor raqibi Ota Hyogani mag‘lub etib, Osiyo o‘yinlarida ikki vazn toifasida qo‘li baland kelgan ilk chempion sifatida tarixga kirdi.

Dzyudochi yigit-qizlarimiz 2 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, dzyudo vatani bo‘lgan Yaponiyadan keyin umumjamoa hisobida ikkinchi o‘rinni egallagani salmoqli natijadir.

Uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan milliy kurashimiz vakillari ham xalqimiz ishonchini oqladi. Ushbu sport turi bo‘yicha 6 ta oltin medalning to‘rttasi bizga nasib etgani kurashsevar xalqimizga o‘zgacha g‘urur bag‘ishladi.

Yuksak sabot va shijoat ko‘rsatgan har bir sportchimizning nomi e’tirofga, ehtiromga loyiqdir.

Mana shunday ulkan g‘alabalar tarixi, mahorat maktabini yaratayotgan, Alpomish va To‘maris vorislari bo‘lgan o‘g‘lonlarimiz va qizlarimizga shon-sharaflar bo‘lsin!

Aziz do‘stlar!

Osiyo o‘yinlaridagi har bir yutuq, har bir hayajonli daqiqa biz uchun o‘ziga xos bayram, zavq va quvonch ayyomi ekanini qariyb bir oy davomida barchamiz chin dildan his etdik.

Albatta, bepoyon Osiyo qit’asining o‘ziga xos Olimpiya o‘yinlari bo‘lgan ushbu musobaqalarda erishilgan yuksak natijalar o‘z-o‘zidan kelgani yo‘q. Ularning zamirida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar, yosh iste’dod egalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz mujassamdir.

Fursatdan foydalanib, bizga unutilmas g‘alabalarni taqdim etgan barcha sportchilarimizga, ularning ota-onalariga, oltinga teng o‘gitlari bilan zafarlarga munosib hissa qo‘shgan jonkuyar ustoz-murabbiylarga, atletlarimizni doimo qo‘llab-quvvatlab turgan ko‘p sonli muxlislarga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Sizlar Osiyo o‘yinlaridagi muzaffar yurishingiz bilan yurtimizda Olimpiya harakati yangi bosqichga ko‘tarilgani, oltin avlod shakllanganini butun dunyoga namoyon etdingiz. Zero, Yangi O‘zbekiston yoshlariga beqiyos aql-zakovat barobarida ulkan jasorat va matonat yarashadi.

Ishonchim komil, Yaponiya zaminida to‘plangan qimmatli tajriba 2028-yilda Los-Anjelesda o‘tadigan Olimpiya o‘yinlari uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Sizlar sayyoramizning eng nufuzli o‘yinlariga ham albatta munosib tayyorgarlik bilan borasiz! Kelgusi faoliyatingiz ham albatta yorqin zafarlarga boy bo‘ladi!

Yangi O‘zbekistonning buyuk sport solnomasini boyitishda sizlarga hamisha yutuq va omad yor bo‘lsin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TOJIKISTON PREZIDENTINI TAVALLUD KUNI BILAN TABRIKLADI

5-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Tojikiston yetakchisini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va birodar Tojikiston xalqining ravnaqi yo‘lidagi mas’uliyatli davlatchilik faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘zbekiston — Tojikiston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Hamkorlik barcha yo‘nalishlarda jadallashib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘sib bormoqda, transport, energetika, geologiya, qishloq va suv xo‘jaligi hamda boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli sheriklik davom etmoqda.

Hududlar o‘rtasida va madaniy-gumanitar jabhada faol almashinuvlar amalga oshirilmoqda.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘lajak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O‘zA

NEFT VA GAZ TARMOG‘IDAGI YIRIK LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev neft va gaz tarmog‘ida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilda “O‘zbekneftgaz” AJ faoliyatini takomillashtirish, xaridlar va ishlab chiqarish bilan bog‘liq masalalarni hal etishga qaratilgan ikkita qaror qabul qilindi.

Taqdimotda ushbu qarorlarning ijrosini ta’minlash, tabiiy gaz qazib chiqarish ko‘rsatkichlari hamda yil yakunigacha amalga oshirilishi mo‘ljallangan tadbirlar ko‘rib chiqildi.

Gaz zaxiralarini ko‘paytirish maqsadida geologiya-qidiruv ishlari kengaytirilmoqda. Jumladan, joriy yilda 3D seysmik razvedka ishlarining hajmi o‘tgan yilga nisbatan 5 barobarga oshirish rejalashtirilmoqda. Yil boshidan beshta yangi gaz konlari ochildi, hududlarda 6000 metrgacha va undan ortiq chuqurliklarga 80 ta quduq burg‘ilangan bo‘lsa, to‘rtinchi chorakda ushbu quduqlardan yana 40 tasini burg‘ilash reja qilingan.

Istiqbolli maydonlarni, ayniqsa, Ustyurtning katta chuqurlikdagi qatlamlarni o‘rganish, yangi konlarni o‘zlashtirish hamda mavjud quduqlar samaradorligini oshirish bo‘yicha rejalar taqdimot qilindi.

Ushbu maqsadlarda burg‘ilash ishlarini yangi bosqichga olib chiqish, jarayonlarga zamonaviy texnologik yechimlarni olib kirish muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli hozirda Ustyurt hududida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yangi quduqlarni burg‘ilash, geofizik ma’lumotlarni qayta tahlil qilish hamda gaz qazib olish samaradorligini oshirish yuzasidan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Taqdimotda “O‘zbekneftgaz” AJ va uning tasarrufidagi yirik korxonalarning moliyaviy natijalari ham tahlil qilindi. Joriy yilning to‘qqiz oyi yakuni bilan korxonalarning jamlangan sof foydasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sgan, kredit portfelini maqbullashtirish natijasida esa qarzdorlik kamaygan, yuqori foizli kreditlar shartlarini qayta ko‘rib chiqish orqali foiz xarajatlarini tejashga erishilgan.

Taqdimot doirasida gaz transport tizimining o‘tkazuvchanlik quvvatini oshirishga doir loyihalarga alohida to‘xtalib o‘tildi. Unda yangi magistral gaz quvurlarini qurish, kompressor stansiyalarini modernizatsiya qilish kabi tadbirlar qamrab olinadi.

Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi, shuningdek, ayrim stansiyalarda zamonaviy elektr dvigatellarini ishga tushirish, gaz yetkazib berish barqarorligini oshirish hamda yiliga 125 million kub metr gaz tejash imkonini beradi. Shu munosabat bilan ularni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Taqdimotda “Mustaqillikning 25 yilligi” konida yuzaga kelgan avariyani bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to‘xtalib o‘tildi. Ushbu ishlarga Xitoyning ixtisoslashgan kompaniyasi jalb qilingan bo‘lib, hozirda maxsus texnika va uskunalar ish joyiga safarbar qilinmoqda, quduqlarni burg‘ilash joylarida tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Avariyani bartaraf etish jarayonining barcha bosqichlarida xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash eng muhim masalalardan biri ekanligi qayd etildi.

Taqdimotda yana bir yirik loyiha — Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarishni ko‘paytirish va uni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ham axborot berildi.

Hozirda zavodda asosiy texnologik qurilmalar ta’mirlangani natijasida dizel yonilg‘isi ishlab chiqarishni 30 foizga, bitum 60 foizga, aviakerosin esa 5 barobarga oshirishga erishilgan.

Kelgusida zavodni xomashyo bilan barqaror ta’minlash, mavjud quvvatlardan samarali foydalanish hamda qarzdorlikni kamaytirish bo‘yicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshiriladi. Yil oxiriga qadar zavod yuklamasi 40 foizdan 65 foizga yetkaziladi va keyinchalik oshirib boriladi.

Davlatimiz rahbari geologiya-qidiruv va burg‘ilash ishlari natijadorligini oshirish, yirik loyihalarni puxta hisob-kitob va aniq moliyalashtirish manbalari asosida olib borish, tarmoq korxonalari faoliyatida samaradorlikka alohida e’tibor berish yuzasidan mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

O‘zA



Diqqat: “Yangi O‘zbekiston” gazetasida yangi loyiha!



KELGUSI O‘N YILLIK — MILLIY YUKSALISH DAVRI

buni faqat va faqat xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali o‘zimiz bunyod etamiz

Joriy yil Vatanimiz mustaqilligining qutlug‘ o‘ttiz besh yillik bayramini katta iftixor va zo‘r tantana bilan nishonladik. Davlatimiz rahbari milliy istiqlolimizning 35 yillik bayram tantanasida so‘zlagan nutqida mamlakatimiz taraqqiyotining yangi sahifasini ochib berdi.

Shu ma’noda, kelgusi o‘n yillik xalqimiz hayotida shunchaki navbatdagi rivojlanish davri emas, balki milliy yuksalish davri sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki ushbu davrda mamlakatimiz yetakchisi belgilab bergan yangi taraqqiyot yo‘li — yurtimizda inson qadrini yanada yuksaltirish, uning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan 7 ta milliy dastur amalga oshiriladi.

Aziz o‘quvchilar! “Yangi O‘zbekiston” gazetasi jamoasi shu munosabat bilan yana bir yangi va muhim loyihaga qo‘l urdi. Xususan, mazkur sondan boshlab siz — azizlarga 7 ta dasturning har birini alohida yondashuv, chuqur tahlil asosida e’lon qilishni lozim topdik.

Bu borada taniqli ekspertlar maqolalarida milliy dasturlarning mohiyati, belgilanayotgan vazifalar ko‘lami va kelgusidagi ishlar, asosiysi, milliy dasturlarning milliy davlatchiligimizni mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yurtdoshlarimiz farovonligini oshirishdagi o‘rni keng tahlil qilinadi.

Prezidentimiz tantanali bayram tadbirida alohida ta’kidlaganidek, “Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz.

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q”.

Yangi loyihaning maqsad-mohiyati ham davlatimiz rahbarining ushbu fikri, da’vatiga hamohang. Zero, yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi — MILLIY YUKSALISH DAVRIga qadam qo‘yar ekan, bunday tarixiy evrilish jarayonida yurtdoshlarimizning yagona maqsad yo‘lida birlashuvi va qaysi soha yoki tarmoqda bo‘lmasin, astoydil mehnat qilishi katta ahamiyatga ega.

O‘z navbatida, yangi loyiha ayni maqsad — taniqli ekspertlarning asosli tahlillari asosida o‘quvchida Vatan taqdiriga, o‘z oilasi va kasbiga daxldorlik hissini oshirishga qaratilgan.

Tahririyat.

3-betga qarang.

Ta’limga sarmoya, avvalo, insonga, uning bilimi, salohiyati va kelajagiga kiritilgan sarmoyadir. Zero, mamlakatning eng katta boyligi tabiiy resurslar emas, bilimli, yuksak salohiyatli va zamonaviy tafakkurga ega insonlardir. Inson kapitali qanchalik kuchli bo‘lsa, jamiyat taraqqiyotining poydevori shunchalik mustahkam bo‘ladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 6-oktabr, 206-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Nuqtayi nazar

TA’LIMDA YAGONA BOSHQARUV: INSON KAPITALI VA ILM-FAN TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ta’lim sohasidagi har bir o‘zgarishning haqiqiy qiymati, avvalo, inson hayotidagi natijasi bilan o‘lchanadi. Zero, ta’lim olishimizdan asosiy mantiq ham shunda. Shu ma’noda aytish mumkinki, bugun maktab ostonasiga qadam qo‘ygan bolaning ertangi taqdiri, uning qanday bilim olishi, qaysi kasbni egallashi, o‘z salohiyatini qay darajada namoyon etishi mamlakatning kelajak taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq.



So‘nggi yillarda yurtimizda ta’lim va tarbiya tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasida keng ko‘lamli islohotlar kechdi. Qisqa fursatda sohaga oid ko‘plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi huquqiy baza mustahkamlandi.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘qituvchining maqomi alohida belgilab qo‘yilgani ustoz va murabbiylarning jamiyatdagi nufuzini yuksaltirish, huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlash, ta’lim sifatini oshirish hamda kelajak avlod tarbiyasiga mas’uliyatni yanada kuchaytirishda muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Keyingi yillarda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasida yangi davrni boshlab berdi. Ular nafaqat ushbu tizimlarning huquqiy asoslarini mustahkamladi, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida muhim o‘zgarishlar uchun mustahkam zamin yaratdi.

Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ta’lim sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish, fuqarolarning ta’lim olish huquqini ishonchli kafolatlash va uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishning mustahkam huquqiy poydevori bo‘ldi. Eng muhimi, u barkamol avlodni tarbiyalash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi inson kapitalini rivojlantirishga keng yo‘l ochdi.

2024-yil 1-fevralda qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun esa ustoz va murabbiylarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi. Unda pedagoglarning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida ekani qat’iy belgilab qo‘yilgani jamiyatda tom ma’noda ustoz kasbining nufuzini oshirish, pedagoglarga nisbatan hurmat va e’tiborni yanada yuksaltirishga imkon berdi.

Prezidentimizning shu yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni ta’lim va ilm-fan sohasini izchil isloh qilish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Mazkur hujjat ta’lim va ilm-fan taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish, ularning o‘zaro uyg‘unligi va uzviyligini ta’minlash, eng muhimi, bilim va ilmiy salohiyatni mamlakat taraqqiyotining strategik omiliga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu farmon zamirida ta’limning turli bosqichlarini yagona mantiq asosida bog‘lash, ilm-fanning ta’lim bilan uyg‘unligini kuchaytirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit tizimni shakllantirish maqsadi mujassam.

Farmonning strategik ahamiyati Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 7 ta milliy dastur mazmuni bilan hamohangdir. Davlatimiz rahbari birinchi milliy dastur bilim va malakani taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishga yo‘naltirishini ta’kidladi. Bu yondashuv ta’lim va ilm-fanni ijtimoiy sohaning alohida yo‘nalishlari sifatida ko‘rishdan kengroq ma’no kasb etib, inson salohiyatini mamlakat taraqqiyotining bosh omili darajasiga ko‘tarishni nazarda tutadi. Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish mazkur strategik maqsadni ta’limning barcha bosqichlari va ilm-fan tizimida izchil amalga oshirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.



Farmonga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi negizida Ta’lim va ilm-fan vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlikning vakolati maktabgacha ta’lim va tarbiyadan boshlanib, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbiy, oliy, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, qo‘shimcha hamda norasmiy ta’limgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Mazkur o‘zgarishning ahamiyati ta’limning inson hayotidagi uzluksizligiga yangicha yondashuvda ko‘rinadi. Insonning bilim va ko‘nikmalari bir ta’lim bosqichidan ikkinchisiga o‘tgan sari boyib borishi, maktabda olingan bilim kasbiy va oliy ta’limda rivojlanishi, keyinchalik esa mehnat faoliyati va ilmiy izlanishlar bilan uzviy davom etishi kerak. Yagona vazirlik ana shu uzviylikni boshqarish uchun institutsional asos yaratadi.

Birlashish, avvalo, boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Biroq islohotning mazmuni bunda tugamaydi. Muhim jihat vakolatlarni aniqlash, mas’uliyatni kuchaytirish va ta’lim sifatini o‘lchaydigan natija mezonlarini joriy etishdir.

Farmonda yangi vazirlik faoliyatini natijadorlikka yo‘naltirilgan va samarali boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish belgilangan. Bu yondashuv ta’lim siyosatini ishlab chiqishdan tortib, uning amaliy natijalarini baholashgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona mezonlar asosida tashkil etishni talab qiladi.

Boshqaruvda mas’uliyatning aniq belgilanishi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogning kasbiy salohiyati, ta’lim dasturlari zamonaviyligi, bitiruvchining mehnat bozoriga tayyorligi, ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilishi kabi ko‘rsatkichlar tizim samaradorligining asosiy mezonlariga aylanishi lozim.

So‘nggi yillarda ta’lim infratuzilmasini yangilashga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi bog‘cha va maktablar barpo etildi, mavjud muassasalar modernizatsiya qilindi. Prezidentimizning ustoz va murabbiylar bilan muloqotida ham so‘nggi o‘n yilda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘chalar va 1,5 million o‘rinli maktablar barpo etilgani, 10 mingdan ziyod ta’lim muassasasi zamonaviy ko‘rinishga keltirilgani urg‘ulandi.

Endi ta’lim siyosatining diqqat markazi infratuzilmadan ta’lim natijasiga yanada qat’iyroq ko‘chmoqda. Chunki yaxshi sharoit muhim bo‘lgani holda uning yakuniy qiymati o‘quvchining bilimi, dunyoqarashi va hayotga tayyorgarligida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, maktablar faoliyatini baholashda sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanish, ta’lim natijalari va pedagoglar salohiyatiga qarab muassasalarni baholash, ilg‘or tajribani keng yoyish kabi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogning kasbiy rivoji ham shu tizimning ajralmas qismi. O‘qituvchining o‘z ehtiyoji va kasbiy maqsadiga mos ravishda bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishi uchun sharoit yaratish ta’lim sifatini oshirishning eng ta’sirchan omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar ta’lim mazmuniga yangi talablar qo‘ymoqda. Zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, muhandislik, “yashil iqtisodiyot” kabi yo‘nalishlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun ta’limning turli bosqichlari uzviy ishlashi zarur.

Maktabda shakllangan matematik, tabiiy va raqamli savodxonlik keyingi ta’lim bosqichlarida yanada chuqurlashishi, kasbiy va oliy ta’lim esa mehnat bozori ehtiyojlari bilan hamohang rivojlanishi kerak.

Shu jihatdan yangi vazirlik oldidagi muhim vazifalardan biri ta’lim dasturlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish, mutaxassis tayyorlash tizimini iqtisodiyot ehtiyojlari bilan yaqinlashtirish va bitiruvchining real mehnat bozoriga tayyorligini oshirishdan iborat.

Yangi vazirlik faoliyatida ta’lim bilan ilm-fanning bir tizimda qaralishi alohida ahamiyatga ega. Ta’lim mavjud bilimlarni o‘zlashtirish va avloddan avlodga yetkazish bilan bir qatorda yangi bilim yaratishga olib borishi kerak. Ilmiy tadqiqot natijalari esa iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvida amaliy natija bergandagina o‘z qiymatini to‘liq namoyon etadi.

Shu bois, oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish, universitet, ilmiy tashkilot va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va innovatsion mahsulotlar yaratish masalalari yangi tizimning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak. Bu jarayonda oliy ta’limni bilim, texnologiya va innovatsiya yaratadigan markaz sifatida rivojlantirish muhim.

Ta’lim sohasi millionlab insonlarning hayoti bilan bog‘liq. Shuning uchun yangi vazirlik faoliyatida jamoatchilik hisobdorligini kuchaytirish talabi belgilanishi muhim qadamdir. Bu, avvalo, ta’lim sohasida ochiqlik va shaffoflikni oshirish, qabul qilinayotgan qarorlar jamoatchilikka tushunarli va asoslangan bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim sifati, pedagoglarning kasbiy salohiyati, bitiruvchilarning natijalari, oliy ta’limdagi tayyorgarlik darajasi, ilmiy tadqiqotlarning amaliy samarasi kabi ko‘rsatkichlar ochiq va tushunarli tarzda baholanib borishi tizimga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

Hisobdorlik ayni paytda faqat hisobot berish bilan cheklanmasligi kerak. U ta’limdagi muammolarni ochiq tan olish, samarali yechimlarni qo‘llash va jamiyat oldida aniq natija uchun mas’uliyatni his etish madaniyatiga aylanishi zarur.

Farmon bilan ta’lim va ilm-fan sohasida boshqaruvning yangi institusional modeli shakllanmoqda. Uning samarasi vazirlik tuzilmasining qanchalik ixchamligi yoki boshqaruv jarayonlarining qanchalik tezligi bilan cheklanmaydi. Asosiy natija inson kapitali sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugun bog‘chada ta’lim olayotgan bola ertaga maktab o‘quvchisi, talaba, mutaxassis, tadqiqotchi yoki tadbirkorga aylanadi. Uning har bir bosqichda olgan bilimi keyingisi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli ta’lim tizimidagi har bir qarorni insonning uzoq muddatli hayotiy trayektoriyasi bilan bog‘lash zarur.

O‘ylaymizki, yangi vazirlikning tashkil etilishi ta’lim, tarbiya va ilm-fanni yagona tizim sifatida rivojlantirish uchun muhim institutsional asos yaratadi. Endi asosiy vazifa mazkur imkoniyatdan samarali foydalanib, ta’lim sifatini izchil oshirish, ilm-fanni iqtisodiyot va jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lash, insonning bilim va salohiyatini mamlakat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylantirishdan iborat.

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari sifatida ilgari surilgan, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan 7 ta milliy dasturning birinchisi — “Bilim va malakani taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirish” g‘oyasi ana shu vazifaning strategik mazmun-mohiyatini aniq ifodalaydi.

Ta’limga sarmoya, avvalo, insonga, uning bilimi, salohiyati va kelajagiga kiritilgan sarmoyadir. Zero, mamlakatning eng katta boyligi tabiiy resurslar emas, bilimli, yuksak salohiyatli va zamonaviy tafakkurga ega insonlardir. Inson kapitali qanchalik kuchli bo‘lsa, jamiyat taraqqiyotining poydevori shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Bandlik

AHOLI ISH BILAN TA’MINLANIB, DAROMAD MANBALARI YARATILMOQDA

To‘rtko‘ldagi “Paxtaobod” ovul fuqarolar yig‘ini tuman markazidan 80 kilometr uzoqda joylashgan. Bunday olis hududda yoshlar bandligini ta’minlashda yer ajratish yaxshi samara beradi. Shu bois, ovulda bu boradagi ishlarga jiddiy e’tibor qaratilgan.

— Ukalarim bilan birga har birimiz 86 sotixdan yer oldik. Birinchi yili mosh, loviya ekib foydalandik. O‘tgan yili qovun ekdik. Uning daromadi yaxshi bo‘lgani uchun bu yil ham qovun yetishtiryapmiz. Hozir qovunlarimizni qo‘shni Xorazm viloyatidan ham xaridorlar sotib olmoqda, — deydi to‘rtko‘llik yoshlardan biri Oymurod Bozorov.

— Avval ishsiz edik. Yoshlarga berilgan yerdan unumli foydalanib, daromad qilyapmiz, — deydi Yalkim Rejepboyev. — Birinchi yili dukkakli ekinlar ekdik. Yaxshi daromad bo‘ldi. Ikkinchi yili qovun ekdik. Bu yil ham qovun ekkanmiz. Hosilni yig‘ib olgach, donli mahsulotlar ekish niyatim bor. Muhimi, bizga aholi yashaydigan punktlarga yaqin joydan yer ajratilmoqda. Qolaversa, bu joylar sug‘orishga qulay va yiliga 2-3-marta hosil olish imkoniyati bor. Bular yerdan samarali foydalanishda qo‘l kelmoqda.

Sho‘rlanish darajasi yuqori hududlarda meliorativ holatni yaxshilash ustuvor vazifaga aylangan. Bu esa hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu kabi sa’y-harakatlar natijasini Amudaryo tumanidagi “Do‘simbetova Qizlargul” fermer xo‘jaligi misolida ko‘rish mumkin. Qizlargul Do‘simbetova 2002-yildan buyon fermer xo‘jaligini boshqarib kelyapti. Uning boy tajribasi bugun sohaga kirib kelayotgan ko‘plab yoshlarga o‘rnak bo‘lmoqda.

— Xo‘jaligimiz yeri 60,3 gektar. Shundan 54,3 gektari ekin maydoni, 6 gektar joy esa ekishga yaroqsiz, ariq va zovurlardan iborat. Ekinlarning to‘g‘ri joylashtirilishi natijasida 35 gektarga paxta, 19,3 gektarga boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari ekib, yuqori hosildorlikka erishmoqdamiz, — deydi Qizlargul Do‘simbetova. — So‘nggi 5 yilda hosildorlik 36-40 sentnerga yetkazilib, umumiy hisobda qariyb 700 tonna sifatli paxta yetishtirdik. Ya’ni kontraktatsiya shartnomalaridagi rejamiz 150-170 foiz bajarilgan. Bunday natija dalalarga o‘z vaqtida agrotexnik ishlov berish va ekinlarni maromiga yetkazib parvarishlash evaziga qo‘lga kiritildi.

G‘allachilikda ham barqaror ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Hudud yerlari sho‘rligiga qaramay, so‘nggi to‘rt yilda 11 gektarga bug‘doy ekilib, hosildorlik 60 sentnergacha ko‘tarilgan, davlatga esa 60 tonnadan ziyod bug‘doy topshirilgan. Natijada fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan 600 million so‘m sof foyda olishga erishgan. Rentabellik darajasi esa 20 foizdan 24 foizga yetkazilgan.

— Xo‘jaligimizda hozir 25 fuqaro doimiy ish bilan ta’minlangan. Daromad manbalarini kengaytirish maqsadida xo‘jalik hududida 10 sotix maydonda baliq havzasi qurdik. Parrandalar bosh soni 400 donaga yetkazildi. Ekologik holatni yaxshilash va yashil hududlarni kengaytirish maqsadida birgina joriy yilda xo‘jalikka qarashli va unga tutash yerlarga 1000 tupdan ortiq manzarali, 300 tupdan ziyod mevali ko‘chat, 2000 tupdan ortiq terak va tut ko‘chati o‘tqazildi, — deydi Q.Do‘simbetova.

Hozir Amudaryo tumanida 1400 gektar mevali bog‘ mavjud. Shundan 790 gektari hosildor bog‘lar, 240 gektari yangi bog‘lardir. Joriy yilning o‘zida 100 gektar maydonda sanoatlashgan bog‘ barpo etiladi. 2026-2028-yillarda yana qo‘shimcha 200 gektar maydonda mevali bog‘ yaratish belgilangan. Shundan 30 gektari olmazor, 70 gektariga intensiv mevali ko‘chatlar ekish reja qilingan. Hozir Qozog‘istonga yiliga 300 tonnadan ortiq meva eksporti yo‘lga qo‘yilgan.



Prezidentimizning “Sanoat usulidagi intensiv mevali bog‘lar barpo etish va eskirgan bog‘larni yangilashni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida 2026-2028-yillarda mamlakatimiz bo‘yicha 172 ming gektar sanoatlashgan bog‘lar yaratish maqsad qilingan. Eski bog‘larni yangilash, sanoatlashgan bog‘dorchilikni kengaytirish va sohada zamonaviy yondashuvlarni joriy etish mexanizmlari belgilab berilgan ushbu farmon asosida Qoraqalpog‘istonda 2800 gektar sanoatlashgan intensiv bog‘lar yaratish ko‘zda tutilgan.

To‘rtko‘l tumanida ham yangi sanoatlashgan intensiv bog‘ maydonlarini kengaytirishga kirishilgan. Tumanda 1000 gektardan ortiq bog‘ bor. Ularning 200 gektari eski bog‘. Qolgani paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hisobiga sanoatlashgan intensiv boqqa aylantirildi.

Tumandagi Eski To‘rtko‘l mahallasida bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida 4 gektarli uzum plantatsiyasi tashkil etilgan. Undan har yili 300 tonnaga yaqin mahsulot olinmoqda. Fermer xo‘ja-ligida uzumchilikdagi an’anaviy tajriba bilan birga sug‘orishda zamonaviy texnologiyalardan ham samarali foydalanilmoqda. Amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijasi esa bugungi ko‘zni quvontiradigan darajada pishib yetilgan uzumlarda o‘z aksini topgan.

— Bog‘imizga qishki uzum ekilgan. Hosilni muzlatkichlarda saqlab, sovuq kunlarda bozorga chiqaramiz. Uzum yetishtirishning ham o‘ziga yarasha mashaqqati bor. Masalan, toklarni sovuqdan saqlash uchun qishda ko‘mib chiqamiz, — deydi tadbirkor To‘xtaboy Bobojonov.

Serquyosh o‘lkamizda yetishtirilgan mevalar o‘ziga xos ta’mi bilan ajralib turadi. Shu bois, ular jahon bozorida xaridorgir. Ayni paytda To‘rtko‘l tumanida bog‘dorchilik rivojlanishi natijasida meva yetishtirish hajmi ko‘paydi. Shunga yarasha ularni eksport qilish salmog‘i ham oshib bormoqda.

Tumandagi bog‘dorchilikka ixtisoslashgan yana bir fermer xo‘jaligida 7 gektarli uzum bog‘i bor.

— Hozir doimiy 10 nafar ishchimiz bor. Yana mavsumda 25 ishchi olamiz. Bog‘imizning 5 gektarida olma, 7 gektarida uzum yetishtirilmoqda. Uzumni asosan, Qozog‘iston, Rossiyaga sotishni mo‘ljal qilganmiz. Bog‘imizda 5 gektar intensiv usulda yetishtirilgan ko‘chatlarimiz bor. Kelajakda sifatsiz ko‘chatlarni almashtirib, tomchilatib sug‘orishga o‘tkazmoqchimiz. Yangi ko‘chatlarni shunga mo‘ljallaganmiz, — deydi fermer Romanberdi Allabergenov. — Bu yilgi hosil cho‘g‘i yomon emas, uning salmog‘i 100 tonnagacha bo‘ladi deb mo‘ljal qilyapmiz. Hozir hosilni omborxonaga joylashtiryapmiz. Qishda bozorlarni ta’minlaymiz.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



MILLIY YUKSALISH DAVRI MA’NAVIYATINI QANDAY TASAVVUR ETAMIZ?



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Yangi O‘zbekistonning buguni va kelajagi haqida ko‘p va xo‘b yozilmoqda. Olimlarimiz, ziyolilarimiz avvallari biz hatto o‘ylab ko‘rmagan yangidan yangi ma’lumotlar, fakt va raqamlar topmoqda. Ular hozirgacha bo‘lgan tafakkur tarzimizni, bilimimiz doirasini yanada kengaytirib bormoqda. Ba’zan ota-bobolarimiz yaratgan ilmiy-madaniy meros, jahon tamadduniga qo‘shgan ulkan hissani ko‘rib, ularning shu qadr keng tafakkurli, chuqur bilimli, ma’rifatli, dunyoni lol qoldirishga munosib aql-zakovat egalari bo‘lganidan lol qolamiz.

Orzu-niyat samarali g‘oyalar bilan uyg‘unlashgandagina yangi natijalarga erishish mumkin. Shu ma’noda, nazarimizda, yangi O‘zbekiston orzusi — hozirgi davrning taqozosi. Qolaversa, uning asl qiyofasi, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos buyuk bunyodkorlik hissi bilan yashash fazilatlari va keng ko‘lamli islohotlarning yaqqol ifodasidir.

“Yangi O‘zbekistonni barpo etish, — deb yozadi Prezidentimiz, — bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir”.

Davlatimiz rahbarining mazkur fikrlarida bir nechta muhim xulosa bor. Birinchidan, yangi O‘zbekiston quruq joyda, o‘z-o‘zidan barpo etilayotgani yo‘q. U tarixiy asoslarga ega. Xalqona aytganda “oqqan daryo oqaveradi”. Ikkinchidan, bugun dunyodagi va yurtimizdagi real vaziyat davlatchiligimiz tarixida, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda mutlaqo yangi davlat va jamiyat qurishni talab etmoqda. Uchinchidan, yangi O‘zbekistonni barpo etish bugun mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha ijtimoiy qatlam vakillarining, siyosiy-ijtimoiy kuchlarning, millati, dini, e’tiqodi, jinsi, g‘oyaviy-mafkuraviy qarashidan qat’i nazar, hammaning manfaatini o‘zida ifoda etadi.

Bu esa, o‘z navbatida, davlat siyosati va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida tanlangan strategik maqsad va vazifalarni muvofiqlashtirib, rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlarini tanlab olishni talab qiladi. Kerak bo‘lsa, bu — hayotiy ehtiyoj, hozirgi taraqqiyot bosqichida yagona to‘g‘ri yo‘lni tanlab olishni taqozo etayotgan zaruratdir. Bu zarurat bugun ongli ravishda anglangan haqiqatga aylanib bo‘ldi.

Mana, biz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotning avvallari xayolimizga ham kelmagan, ammo har birimizning yurak-yuragimizda kimgadir qimtinib bildirib, ko‘pincha pinhona tutib kelgan o‘zgarishlaru islohotlar davriga kirib olganimizga ham o‘n yil to‘ldi. Bu yurtimizda istiqomat qilayotgan odamlarning orzusi ro‘yobidir.

Esimizda: bundan to‘qqiz-o‘n yil avval xalqimiz birdan uyg‘ongan, qator yopiq mavzular ochiq-oydin aytila boshlagan edi. Barcha sohada tub islohotlar boshlangan, xalqimiz esa ularning faol ishtirokchisiga aylangan edi. O‘quvchi va talabalarsiz ham paxta yig‘im-terim ishlarini uddalash mumkinligini, majburiy mehnatni ham huquqiy, ham amaliy jihatdan bartaraf etsa bo‘lishini, qo‘shni davlatlar bilan chegaralarni ochib qo‘yib, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish har ikki tarafga ham foydali ekanini, mamlakatimizda uy-joyi yo‘q odamlar ko‘pligi, biroq ularni zamonaviy turar joylar bilan qisqa muddatda ta’minlash imkoniyati borligini endi bilyapmiz!

Ha, o‘tgan so‘nggi o‘n yil xalqimizning turmushi va tafakkur tarzini o‘zgartirib yubordi. Endi biz boshqacha xalq bo‘ldik. O‘z so‘zini dadil ayta oladigan, haqqoniy talablari, haq-huquqlarini talab qila oladigan millatga aylandik. O‘tgan o‘n yil bizga yana bir narsani o‘rgatdi: mamlakat va jamiyatdagi muammoni ko‘rmay, uning borligini anglamay turib, ularni hal etib bo‘lmas ekan. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining 2017-yildayoq “O‘zbekistonda kambag‘allik bor”, “ko‘plab sohalarda korrupsiya mavjud”, “ularni hal etmasdan turib, yangi jamiyatni barpo etish aslo mumkin emas” degan fikrlarini nazarda tutyapman.

Yaratganning inoyati, xalqimizning xohish-irodasi bilan tub islohotlar boshlandi. Ularning aniq natijalari mamlakatimiz rahbari tomonidan davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qayd etildi.

Mana, ulardan ba’zilari:

“iqtisodiy erkinlik indeksi”dagi o‘rnimizni 80 foiz yaxshilab, “iqtisodiyoti mo‘’tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldik;

ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelingan bo‘lsa, hozir 40-50 milliard dollar chet el sarmoyasi jalb qilinmoqda;

yangi davrda 650 ming oila zamonaviy, barcha talabga javob beradigan uy-joyli bo‘ldi;

izchil sa’y-harakatlar tufayli bugun kambag‘allik darajasini 2017-yildagi 35 foizdan 4 foizga tushirishga erishildi;

o‘tgan o‘n yilda aholi 8 millionga ko‘paygani holda bog‘chaga qamrov 78 foizga yetkazildi, maktablarda 1,5 million qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni ochildi;

oliy ta’lim muassasalari talabalari bugun 1 million 600 mingga yetdi;

aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2025-yilda 75,4 yoshga yetdi, go‘daklar va onalar o‘limi ko‘rsatkichi 4 barobar kamaydi.

Bu ko‘rsatkichlar o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmadi. Avvalo, bizning har tomonlama rivojlanishimizga xalal berayotgan qanchadan qancha foydasiz, odamlarni behuda ovora qiladigan ma’muriy to‘siqlarni olib tashlash, xalqimizning samarali tashabbuslari va intilishlarini so‘ndiradigan huquqiy-me’yoriy rasmiyatchiliklarni bartaraf etishga to‘g‘ri keldi. Bular oson ish emas edi.

Ammo xalqimizning kuchli qo‘llab-quvvatlovi va Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan eskicha tafakkur tarzidan xalos bo‘ldik. Tevarak-atrofga, dunyoga boshqacha ko‘z bilan qaray boshladik. Muammolarni hal etishning yangi yo‘llarini topishni o‘rgandik.

Natija uzoq kuttirmadi. Belgilagan rejalarimizni muddatidan avval ado etish odat tusiga kira boshladi. Mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda davlatimiz rahbari mamlakatimiz o‘tmishi, buguni va istiqboli haqida bildirgan fikrlari, fundamental ilmiy xulosalari bilan davlatimiz va xalqimizning kelgusidagi taraqqiyot yo‘lini belgilab berdi.

Ana shu tantanali tadbirda kelgusi o‘n yil “Milliy yuksalish davri” va “Vatanimizning oltin davri” deb atalishi qayd etildi. Har bir inson, har bir jamiyat va davlat o‘z taraqqiyoti haqida o‘ylar ekan, yaqin va uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik maqsad va vazifalarini belgilab oladi. Ular qanchalik haqqoniy va xolis tanlansa, ichki va tashqi omillar e’tiborga olinsa, imkoniyatlar to‘liq sarhisob qilinsa, ro‘yobga chiqish imkoniyati shu qadar aniq bo‘ladi. Biroq bularning o‘zi yetarli emas. Eng muhimi, bu maqsad va vazifalar shu jamiyatda yashayotgan odamlarning manfaatiga mos kelishidir.

Prezidentimizning mazkur tantanali tadbirdagi o‘ta samimiy nutqini qunt bilan o‘rganar ekanman, unda juda ko‘p masalalarga mutlaqo yangicha yondashuvni, ularni innovatsion, kreativ tarzda hal etishga intilishni ko‘rdim. Gapning ochig‘i, davlatimiz rahbarining har bir ma’ruzasi va uning ratsional mag‘zini chaqib ko‘rishga harakat qilaman.

Bu safargi nutq masalaning qo‘yilishi va hal etilishi nuqtai nazardan avvalgilardan fundamental farq qilishini e’tirof etish kerak.

Masalan, ushbu tarixiy nutqda kelgusi o‘n yillikda milliy yuksalish davrida belgilangan to‘rtta muhim g‘oyani anglab yetdim. Birinchidan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida biz uchun eng ustuvor g‘oya inson qadri masalasidir. Ta’kidlanganidek, bugungi O‘zbekistondagi barcha islohotlar faqat va faqat inson qadr-qimmatini oshirishga yo‘naltirilgan.

Haqiqatan, inson qadrini ulug‘lash barcha islohotlarning markazida turgan eng muhim masaladir. “Amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimizning markazida, — deydi davlatimiz rahbari, — inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ezgu g‘oya mujassam. Chunki bizning muqaddas dinimizda ham, buyuk allomalarimizning boy ilmiy va ma’naviy merosida ham, inson — hayot gavhari, tengsiz mo‘’jiza sifatida ulug‘langan”.

O‘tgan o‘n yillikda yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash borasida jiddiy yutuqlarga erishildi. Buning sababi esa davlat o‘z siyosati markaziga insonni qo‘ydi. Bejiz inson barcha islohotlarning o‘zagi deb aytilmagan. Sobiq sovet mustabid tuzumi davrida siyosat markazida davlatning o‘zi turgan. Qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, sovet davlatining dunyodagi “eng adolatli, insonparvar” ekanini isbotlash kerak edi. Ana shu yolg‘on siyosat sovun pufagidek yorilib ketdi. Buni odamlar ochiqdan ochiq qayd etmoqda.

> **Men davlatimiz rahbarining mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqini eshita turib, yoshlarga qarata otalarcha mehr-muhabbat bilan aytgan fikrlarida ikki muhim jihatga e’tibor qaratdim. Birinchisi — mas’uliyat, ikkinchisi — ishonch masalasi.**

Prezidentimiz tantanali tadbirda ilgari surgan ikkinchi muhim g‘oya tarix va kelajak uyg‘unligi masalasidir. Davlatimiz rahbarining nutqidan olgan yana bir muhim xulosam shu bo‘ldiki, yangi O‘zbekiston sharoitida kecha, bugun va kelajakni yagona yaxlit zanjir tarzida ko‘rmasak, ushbu zanjirda ularning birortasini e’tibordan chetda qoldirsak, shubhasiz, ko‘zlagan maqsadga erishish aslo mumkin emas.

Shu ma’noda, biz milliy taraqqiyotimiz to‘g‘risida haqqoniy qayg‘ursak, hech istisnosiz, buyuk davlatchiligimiz, mutafakkir allomalarimiz yaratgan hamda butun ma’rifatli dunyo e’tirof etayotgan Birinchi va Ikkinchi Renessans fenomenining haqli merosxo‘rlari ekanimizni, bugungi yutuqlarimiz zamirida o‘sha mutafakkirlarning ruhiga sodiqlik yotganini aslo unutib bo‘lmaydi. Nazarimda, milliy taraqqiyotimizning muhim omili “o‘tmish ilmiy-madaniy merosidan ruhiy-ma’naviy quvvat olib, bugun o‘zining mustahkam siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy zaminiga ega bo‘lib, buyuk kelajakni ko‘zlab taraqqiyot sari yuzlanish”dan iborat bo‘lishi kerak.

Davlatimiz rahbarining taraqqiyotning muhim kafolati kecha — bugun — kelajak zanjiridan uzilib qolmaslik, deya ta’kidlagan purma’no, chuqur e’tiqodga aylangan xulosalari bugun yangi O‘zbekiston taraqqiyotining oltin qoidasiga aylanishi lozim. Bugunni deb kechadan, kechani deb bugundan ayrilish har doim yo‘qotishlarga sabab bo‘lgan.

Milliy yuksalish davrida yangi O‘zbekiston jamiyatini taraqqiyot sari yetaklaydigan yana bir g‘oya “Yoshlar — kelajakning hal qiluvchi kuchi” g‘oyasidir. O‘zbekiston — yoshlar mamlakati. Mamlakat taqdiri ular qo‘lida. Bugun mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash tizimi yaratildi. Ularning huquq va manfaatlari aniq moddalar bilan muhrlab qo‘yildi. Natijada hozir davlat va mamlakat taqdirini belgilab bera oladigan yoshlar siyosati shakllandi.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlariga quloq tutaylik: “Yoshlarga oid siyosatimiz falsafasining tub mohiyatini qisqacha qilib shunday ifodalagan bo‘lardim: yoshlarimiz zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, keng dunyoqarashga va intellektual salohiyatga ega, aqlli, ilmi yetuk, zukko, biz erishgan marralardan ham yuksakroq cho‘qqilarni zabt etishga qodir, sog‘lom va barkamol insonlar bo‘lishi va bu hayotda baxtiyor yashashi shart!”

Men davlatimiz rahbarining mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqini eshita turib, yoshlarga qarata otalarcha mehr-muhabbat bilan aytgan fikrlarida ikki muhim jihatga e’tibor qaratdim. Birinchisi — mas’uliyat, ikkinchisi — ishonch masalasi.

Haqiqatan, har ikki tushuncha bugun alohida, o‘zgacha ma’no kasb etadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, ular bir-biri bilan mohiyatan uzviy bog‘langan, bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Ishonch tuyg‘usi mas’uliyatni uyg‘otadi. Ishonch insonning boshqa bir odam, narsa yoki o‘zining harakatlari, so‘zlari va va’dalariga to‘liq tayanishi. Mas’uliyat esa odamning o‘z so‘zlari, qarorlari, ularning natijalari uchun javobgarligi.

Biroq ishonch va mas’uliyat faqat ikki shaxs o‘rtasidagi munosabatlar tarzida jo‘n tushunishdir. **Tom ma’nodagi ishonch va mas’uliyat, avvalo, jamiyat a’zolari va davlat o‘rtasidagi ishonch hamda mas’uliyat masalasi. Bugun davlat bundan o‘n yil avval bergan va’dasining ustidan chiqdi.** O‘shanda “va’dalar berilaveradi, bunday va’dalarning ko‘pini ko‘rganmiz, hali ko‘ramiz uning natijalarini!” deganlar kam emas edi.

Yangi O‘zbekiston o‘z fuqarolarini strategik maqsadlariga ishontira oldi. Davlat barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga oldi. Uni bajardi. Xalq davlatga ishondi. Ana shu ishonch endi taraqqiyotimizning yangi — milliy yuksalish davri sari yetaklayapti. Bu yo‘lda davlat va xalqimizning ishonchi mas’uliyat hissini sezishga qodir yoshlarga qaratilayotgani bejiz emas. Qolaversa, yosh avlod qadrlangani uchun ham mas’uliyatni sezyapti. Qadrlangan yigit-qizlar ishonchni oqlashga intiladi, yaratadi, bunyod etadi. Bunga o‘tgan o‘n yillik qisqa, ammo tarixiy taraqqiyot yo‘limiz misol bo‘la oladi.

Davlatimiz rahbari nutqda e’tirof etgan to‘rtinchi g‘oya rivojlanishda milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining uyg‘unligi masalasidir. Bugungi dunyoning chuqur ma’naviy inqirozga uchrab borayotgani, globallashuvning insoniyat taqdiriga ko‘rsatayotgan ta’siri, milliylik va umuminsoniylik tamoyillari tarafdorlari o‘rtasidagi g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar barchamizni sergaklantirmoqda.

Qayd etganimizdek, bugunni deb kechani, o‘tmishni deb kelajakni unutish taraqqiyotga to‘siq bo‘ladi. Jonajon ona tilimizni rivojlantirmay, milliy tariximizni o‘rganmay, qadriyatlarimizga hurmat bajo keltirmay kelajak to‘g‘risida bong urish foydasiz. Shuningdek, hozirgi global olamda yakka yashashning ham iloji yo‘q. Dunyo hamjamiyati bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, yangi texnologiyalar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, zamonaviy infratuzilmalar yaratish borasida hamkorlik qilish ham bugunning talabiga aylangan.

Buning uchun milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining sog‘lom o‘zaro uyg‘unligiga erishish maqsadga muvofiq. Bunday uyg‘unlik milliylikka salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Aksincha, ma’rifatli dunyoning rang-barangligini ta’minlaydi. Odamlar, davlatlar, turli mafkuralar, tamaddunlar o‘rtasidagi ishonchni ta’minlaydi. Natijada milliy o‘zligimizni saqlab qolgan holda xalqaro jarayonlarda chuqur va keng integratsiya qilish imkoniga ega bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbari kelgusi o‘n yillik mamlakatimiz uchun milliy yuksalish davri bo‘lishini ta’kidladi va inson qadrini yuksaltirishdagi 7 ta milliy dastur amalga oshirilishini ta’kidladi. Haqiqatan, kelgusi o‘n yillikda yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi davriga qadam qo‘yadi. Buning uchun, birinchidan, bizda barcha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy imkoniyat mavjud. Ikkinchidan, bizda o‘tgan o‘n yillik taraqqiyot tajribasi bor. Uchinchidan, xalqimiz adolatli, xalqparvar siyosat, davlatga ishonch tufayli mazkur o‘zgarishlardan manfaatdor bo‘lib turibdi. Ana shularning barchasi milliy yuksalish davri mamlakatimiz va millatimiz taqdirida muhim bosqich bo‘lishiga ishonch uyg‘otmoqda.

Xo‘sh, milliy yuksalish davri natijasida yangi O‘zbekistonda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi? Uni tasavvur etish qiyin emas deb o‘ylayman. Albatta, bu bo‘yicha hali davlat dasturlari qabul qilinadi, yangi davrning huquqiy asoslari takomillashtiriladi. Shu ma’noda, fikrimcha, yangi davrning asosiy sifat o‘zgarishlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Birinchidan, mamlakatimiz rahbari ilgari surgan ikkita eng ustuvor g‘oya — “Inson qadrini yuksaltirish” va “Davlat — inson uchun” g‘oyalarining ro‘yobi mukammal tarzda namoyon bo‘ladi. Hozir ayrim paytlarda mazkur g‘oyalarning amal qilish mexanizmi muayyan qiyinchiliklar, ba’zan ma’muriy to‘siqlar tufayli buzilish holatlari yuzaga kelayotgan bo‘lsa, yangi davrning oxiriga borib, bunday g‘oyalar har bir davlat tashkiloti, muassasalar faoliyatining asosiga aylandi.

Bundan tashqari, inson qadrini yuksaltirish va davlatning odamlarga g‘amxo‘rligi ham davlat tashkilotlari, ham jamiyat fuqarolarida anglangan ehtiyoj, bajarilishi shart bo‘lgan vazifaga aylanadi. Natijada milliy yuksalish davri oxiriga borib ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish zaruratdan haqiqatga aylanadi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyamizda insonning siyosiy va boshqa huquq hamda erkinliklarini amalga oshirish, davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta’minlash, jamiyatning erkin siyosiy tizimini shakllantirishga ko‘maklashish, umuman demokratik erkinliklarni kuchaytirish, fuqarolik jamiyati tuzilmalari rolini oshirishga keng e’tibor berilgan.

Bu borada qamrovli ishlar qilinyapti. Ammo bu jarayonda fuqarolarning ishtiroki ijtimoiy faollikka aylanishi sust kechyapti. Shu ma’noda, kelgusi o‘n yilda jamiyat tom ma’noda islohotlarning tashabbuskoriga aylanadi. Ayniqsa, inklyuziv qarorlar qabul qilish amaliyoti kengayadi. Muayyan masalani hal etish, muammolarni aniqlash va hal etishda jamiyatdagi barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari, fikrlari va huquqlarini hisobga olgan holda inklyuziv qarorlar qabul qilish amaliyoti davlat va jamiyat hayotidagi shaffoflikni yanada oshiradi.

Uchinchidan, mamlakatimiz o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanishga o‘tmoqda. Yalpi ichki mahsulot hajmi muttasil ortmoqda. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash orqali yangi O‘zbekiston daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olishga intilmoqda. Bularning barchasi xalqimizning ko‘z o‘ngida ro‘y bermoqda va turmush tarzi, farovonligida aks etmoqda.

Milliy yuksalish davrida esa sun’iy intellekt, kreativ iqtisodiyot kabi yo‘nalishlar rivojlanadi. Mamlakatimiz rahbari qayd etganidek, bu yo‘nalishlarga milliy ruh beriladi. Natijada kreativ iqtisodiyot jamiyatda katta ijtimoiy harakatga aylanadi. Bu orqali 10 million yigit-qizimiz raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kiriladi. Natijada O‘zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg‘or tashabbuslarni taklif qiladigan ta’sirchan markazga aylanadi.

To‘rtinchidan, odamlarning tafakkur tarzida jiddiy evrilishlar yuz beradi. Aslida, bunday o‘zgarishlar allaqachon boshlangan. Biroq xalqaro global o‘zgarishlar jamiyat a’zolarining ongi va tafakkuriga yangidan yangi tahdidlar xavf solmoqda. Axloqsizlik ko‘rinishlari ko‘payib bormoqda. Qadriyatlar qadrsizlanmoqda. Bundan, shubhasiz, butun jamiyat jabr ko‘rmoqda.

Shuning uchun ham milliy yuksalish davrida ta’lim, ilm-fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash, umuman ijtimoiy masalalarga e’tibor yanada kuchayishi tufayli yangi O‘zbekistonda yangicha ijtimoiy-ma’naviy muhit shakllanadi. Bunday muhitning asosini esa adolat, insonparvarlik, ezgulik, o‘zaro hurmat, ijtimoiy hamkorlik kabi fazilatlar egallaydi.

Albatta, yangi davrda ko‘zlangan yutuqlarga erishish oson bo‘lmaydi. Buning uchun tinimsiz izlanish, yangi iste’dodlarni topish, taraqqiyotning innovatsion usullariga amal qilish kerak.

Xo‘sh, shu nuqtai nazardan milliy yuksalish davri ma’naviyatining muhim jihatlari nimalardan iborat bo‘ladi?

Birinchidan, har bir yangi davr o‘ziga xos va mos tarbiya hamda ma’naviyat tizimini talab qiladi. Milliy yuksalish davri jamiyatning har bir a’zosidan o‘z “ma’naviy cho‘qqisi”ni belgilab olishni talab qiladi. Insonning ma’naviy cho‘qqisi aql-zakovat va bilim bilan uyg‘unlashmas ekan, u quruq nasihatdan iborat bo‘lib qolaveradi. Quruq nasihat esa samarasi kam, vaqtni befoyda o‘tkazishdan iborat tadbirbozlik xolos.

Biz yangi ma’naviy yuksalish to‘g‘risida bong ursagu, iqtisodiyotda korrupsiya holatlariga yo‘l bersak, siyosatda befarq bo‘lsak, voqea-hodisalarni tahlil qilish amaliyotiga ega bo‘lmasak, ijtimoiy masalalarda hafsalasizlikka yo‘l qo‘ysak, ma’naviy hayotda davomiy mudrasak, bu bilan kelajak to‘g‘risidagi orzularimiz o‘y-xayoldan bo‘lak narsa bo‘lmay qoladi. Ma’naviy cho‘qqi — insonning o‘zini o‘zgartira olishga da’vat etadigan ma’naviy merosning real hodisaga aylanishi, jamiyat milliy ruhiyatining jonlanishi, ezgulik, go‘zallik va adolat haqidagi umumiy tushunchalarning shaxs faoliyatidagi hal qiluvchi mezonlar tarzda amal qilishi, asriy donishmandlik, madaniy merosdan foydalangan holda o‘zini jamiyatning hal qiluvchi kuchi sifatida namoyon etishga qodir bo‘lgan yetuklik darajasi.

Ikkinchidan, milliy yuksalish davrida biz ma’naviyatsizlik, yoshlar tarbiyasidagi xatolarni tuzatishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. “Ma’naviyatsizlik va axloqsizlik, — deydi davlatimiz rahbari, — har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin”.

An’anaviy o‘zbek milliy ma’naviy kodining tiklanishi, uning adolat, insoniylik, ezgulik, vatanparvarlikka yo‘g‘rilgan g‘oyalar bilan yanada boyishi va mustahkamlanishi milliy yuksalish davrida yanada katta, salmoqli yutuqlarga erishishimizga imkon beradi.

Uchinchidan, biz hozirgacha asosan alohida olingan shaxsni, konkret ma’noda, har bir bola, yigit-qizni individual tarbiyalashga harakat qildik. Ularning har biriga “aqlli bo‘lish”, “kattalarga hurmat ko‘rsatish”, “yaxshilardan o‘rnak olish”, “keksalarga salom berish” va hokazolarni o‘rgatib keldik. Hech shubhasiz, yoshlar tarbiyasida bunday yondashuv kerak. Ammo endi bizga ko‘proq jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllangan, xudbin dunyoqarash o‘rnida vatan va millat taqdiriga mas’uliyat his etadigan, shaxsiy va jamoat manfaatlarini uyg‘unlashtirishga qodir yigit-qizlar zarur. Aynan ular bilan milliy yuksalish davrida oldimizga qo‘yilgan murakkab vazifalarni hal eta olamiz.

To‘rtinchidan, milliy yuksalish davri yoshlari iste’molchilik kayfiyatidan qutulib, bunyodkorlik salohiyatiga ega jamiyat a’zolariga aylanishi lozim. Bunday yoshlar xayolot dunyosidan chiqib, haqqoniy dunyoga kirib boradi. Qimtinib o‘tiradigan odamlardan yangilik yaratuvchi, tashabbuslar va yangi g‘oyalar ishlab chiquvchi, bahsga kiruvchi, tahlil qiluvchi, tafakkur qiluvchi shaxsga aylanadi.

Beshinchidan, kuchli milliy yuksalish kuchli ma’naviyatni talab qiladi. Milliy yuksalish davriga ma’naviy-ruhiy quvvat beradigan kuchli ma’naviyatning mohiyati nimalardan iborat? Nazarimizda, u, eng avvalo, masalaga amaliy-pragmatik nuqtai nazardan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi. Kimdandir eshitgan, qayerdadir o‘qigan va ko‘rgan narsalarini real hayotga, harakat va faoliyatga aylantirish kuchli ma’naviyatning ibtidosidir.

Kuchli ma’naviyat insonda ma’naviy-ruhiy ehtiyojni shakllantiradi. Ehtiyoj yo‘qlikda yetishmayotgan va qondirilganda yengillik hissini uyg‘otadigan xatti-harakatdir. U — shaxs faolligi manbai. U tufayli istak va taassurotlar paydo bo‘ladi. Milliy yuksalish davri ma’naviyati jamiyatda ma’naviy yuksalish bilan uyg‘un yuz beradi.

Darhaqiqat, milliy yuksalish davri oldimizga yuksak marralarni qo‘ymoqda. Ularni uddalash muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab qiladi. Biroq mehnatkash va zahmatkash o‘zbek xalqi ming yilliklar qa’rida qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirmadi, deysiz! Milliy yuksalish oldimizdagi katta sinov, turli siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy tartibsizliklar davrida o‘zlikni saqlab qolish, tenglar ichida teng bo‘lib, taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqib olishdir. Bu yo‘lda bizga hamroh, ishonchli maslahatchi, sodiq do‘st — kuchli ma’naviyat. Faqat kuchli ma’naviyat bilangina milliy yuksalish davri bunyod etiladi.

Jahonda eksport uchun raqobat kuchayib bormoqda. Xaridorning tanlovi ko‘p. U sifat, narx, yetkazib berish tezligi, sertifikat, xizmat ko‘rsatish darajasini bir vaqtning o‘zida baholaydi. Shuning uchun bugun mahsulot ishlab chiqarishning o‘zi kamlik qiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 6-oktabr, 206-son

www.yuz.uz yuz.uzne yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Tahlil

Davlatimiz rahbari mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri deb atadi. Yuksalishning iqtisodiy poydevori ham aniq maqsadlar bilan belgilangan. Uchinchi milliy dastur doirasida iqtisodiyotni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish vazifasi qo‘yildi. Kelgusi o‘n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotni 300 milliard dollarga yetkazish, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochish kabi ulkan marralar ham ana shu ezgu maqsadning amaliy ko‘rinishidir.



OCHIQLIK VA AMALIY YONDASHUV

tadbirkorlikka keng yo‘l, eksportga katta imkoniyat yaratmoqda

Bu maqsadlar iqtisodiyotga kirib kelayotgan har bir sarmoya, ishga tushayotgan har bir korxona va yaratilayotgan har bir mahsulot bilan hayotga ko‘chadi. Sarmoya iqtisodiyotda yangi imkoniyatlarga zamin hozirlaydi. Ammo investitsiyaning samarasi ishlab chiqarish va bozorda namoyon bo‘ladi. Korxonada yaratilgan mahsulot dunyo bozorida o‘z xaridorini topgani sari ishlab chiqarish ko‘lami kengayadi. Texnologiya yangilanadi. Yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Shu ma’noda, investitsiya iqtisodiyotga kuch bersa, eksport ana shu kuchga dunyo bozorida maydon ochadi.

Jahonda eksport uchun raqobat kuchayib bormoqda. Xaridorning tanlovi ko‘p. U sifat, narx, yetkazib berish tezligi, sertifikat, xizmat ko‘rsatish darajasini bir vaqtning o‘zida baholaydi. Shuning uchun bugun mahsulot ishlab chiqarishning o‘zi kamlik qiladi. Uni kim sotib oladi, qaysi bozorda unga talab bor, raqobatchi qancha narx qo‘ygan, tovarni qanday yetkazib berish mumkin — tadbirkor shu savollarning javobini oldindan bilishi muhim.

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida eksport masalasiga alohida e’tibor qaratilgani shu jihatdan katta ahamiyatga ega. O‘rganishlar eksportchilar duch kelayotgan muammolarni raqamlarda ko‘rsatdi: 40 foiz tadbirkor xorijda mijoz topishda qiynalmoqda, 36 foizi mahsulotini chet el standartlari va sertifikat talablariga moslashtirishda muammoga duch kelyapti. 37 foiz eksportchiga qulay moliyaviy instrumentlar yetishmayapti, 33 foizida esa bozor, marketing va brend bo‘yicha zarur ko‘nikmalar yetarli emas.

Keltirilgan raqamlarning har biri ortida muayyan korxona taqdiri turibdi. Bir tadbirkorning mahsuloti omborda qolib ketishi mumkin. Boshqasi xaridor topsa-da, sertifikat talabidan o‘tolmasligi ehtimoli bor. Yana biri yaxshi mahsulot ishlab chiqarib, uni qaysi bozorga olib chiqishni bilmaydi. Demak, eksportdagi to‘siqlar faqat korxona ichidagi muammo bo‘lib qolmay, ularning bir qismi axborot, moliya, logistika, sertifikatlash va bozorga kirish tizimi bilan bog‘liq.

Shu bois, yangi “eksport navigatori” tizimining ahamiyati katta. Uning vazifasi tadbirkorga yo‘l ko‘rsatishdan iborat. Qaysi mamlakatda qaysi mahsulotga talab bor — shu yerdan boshlanadi. U yerda raqobat qanday, tarif qancha, tovarni qaysi yo‘l bilan yetkazish arzon va tez — keyingi qadam shu. Mahsulotni qanday sertifikatdan o‘tkazish, qaysi moliyaviy vositadan foydalanish va xaridorni qayerdan topishi ham bir tizimda ko‘rinishi kerak.

Tadbirkorning tashqi bozorga chiqishini osonlashtirish uchun, avvalo, qaysi mahsulotga qayerda talab yuqori ekanini aniqlash kerak. Shu maqsadda xorijiy bozorlarda talab va raqobatni o‘rganish asosida 100 ta istiqbolli mahsulot tanlab olinadi. Har biri bo‘yicha raqobatchilar, tariflar, xaridor talabi va logistika imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. Olingan ma’lumotlar esa quruq statistika bo‘lib qolmay, tadbirkor uchun amaliy yo‘l xaritasiga aylanadi. Ya’ni qaysi bozorga qanday mahsulot bilan kirish, uning narxi va sifatiga qanday talablar qo‘yilishi, xaridorga yetkazib berish masalalari oldindan aniq bo‘ladi. Ana shu tahlillar asosida 2000 ta korxonaning ishlab chiqarishini muayyan tashqi bozor va xaridor segmenti talabiga moslashtirish dasturi ishlab chiqiladi. Natijada tadbirkor bozorni ko‘zi bog‘liq holda izlamaydi, davlat esa uning o‘rniga biznes yuritmay, tashqi bozorga chiqishida zarur ma’lumot, xizmat va amaliy ko‘makni bir tizimga birlashtiradi.

Masalan, mahalliy korxona sifatli mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ammo Yevropa yoki Osiyodagi xaridor boshqa o‘lcham, qadoqlash, sertifikat yoki texnik talabni so‘rashi ehtimol. Korxona shu talabni bilsa, ishlab chiqarishini o‘zgartiradi. Xaridorni oldindan o‘rganmagan korxona esa yaxshi mahsulotni ham bozorga kirita olmaydi. Eksportda “mahsulot bor” degan gapdan ko‘ra “xaridorga kerakli mahsulot bor” degan yondashuv ustun.

Milliy brendlar masalasi ham shu jarayonning muhim qismi. Dunyo bozorida O‘zbekiston nomi sifat va ishonch bilan tanilishi kerak. Bunday obro‘



bir kunda paydo bo‘lib qolmaydi. U sifatli mahsulot, barqaror ta’minot, o‘z vaqtida yetkazib berish va xaridorga yaxshi xizmat ko‘rsatish orqali yillar davomida shakllanadi.

Shu sababli xorijlik brendmeykerlarni jalb qilish xarajatining yarmini qoplash, milliy brendlarni chet el bozorida targ‘ib qilish hamda xalqaro talablarga moslashtirish uchun 50 ming dollargacha subsidiya ajratish muhim ahamiyatga ega. Tadbirkor mahsulotni ishlab chiqardi. Endi uni dunyoga tanitish, raqobatchilar orasida ajratib ko‘rsatish va unga ishonch uyg‘otish kerak. Mazkur choralar ana shu bosqichda tadbirkorga amaliy ko‘mak beradi. Natijada O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tashqi bozorda o‘z nomi va sifati bilan tanilib borishi uchun zamin hozirlanadi.

Xalqaro tenderlar ham biznes rivoji uchun katta imkoniyat. Lekin bunday tenderda ishtirok etish uchun mahsulotning o‘zi kifoya qilmaydi. Hujjat tayyorlash, talablarni tushunish, taklifni to‘g‘ri shakllantirish, raqobatchilarni o‘rganish kabilarni bilish kerak. Konsalting kompaniyalari xarajatining 80 foizini qoplash mexanizmi ana shu bilim va tajriba yetishmasligini to‘ldirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston eksportining 60 foizi 20 ta davlat hissasiga to‘g‘ri kelayotgani ham alohida e’tiborga molik. Bu bozorlarda o‘zbek tadbirkori raqobatni ko‘rdi, xaridor talabini o‘rgandi, standartlarga moslashdi. Endi masala bozorlarda eksportni yanada oshirish bilan birga yangi manzillarni topishdan iborat. Aynan shu yerda tajriba eng katta kapitalga aylanadi.

Shu maqsadda 20 ta asosiy eksport bozori va istiqboli yuqori yana 5 davlatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga “eksport elchisi” maqomi berilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu g‘oyaning muhim jihati bor: xorij bozorini o‘sha yerda ishlab, savdo qilib, muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni boshdan kechirgan tadbirkor yaxshi biladi. U qaysi savdo tarmog‘iga kirish mumkinligi, qaysi sertifikat talab etilishi, xaridor bilan qanday ishlash lozimligini amalda ko‘rgan.

Diplomatiyaning iqtisodiy mazmuni ham kuchaymoqda. Elchixona faqat siyosiy muloqot maydoni bo‘lib qolmay, tadbirkor uchun amaliy ko‘mak nuqtasiga aylangani ma’qul. Yangi bozor qayerda ochilsa, u yerga birinchi bo‘lib yo‘l ko‘rsatadigan, xaridor bilan bog‘laydigan, mahalliy muhitni tushuntiradigan inson kerak. Bu vazifada diplomatlar va eksport elchilarining hamkorligi juda muhim.

Eksportdagi yana bir og‘riqli masala — muddati o‘tgan qarzdorlik. Bugun tashqi bozordagi notinchlik, logistikadagi uzilishlar yoki xaridor bilan bog‘liq muammo tadbirkorning rejasini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shu paytda korxona tashqi bozordagi muammoni hal qilish bilan birga jarima bosimi tagida qolsa, ishlab chiqarish zanjiri yanada qiyinlashadi.

Shuning uchun yil yakuniga qadar qarzni qoplash uchun bank hisobvarag‘iga valyuta qo‘ygan eksportchining mablag‘ini eksport tushumi sifatida qabul qilish bo‘yicha berilgan yechim 3000 dan ziyod eksportchi va 380 ming ishchining manfaatiga xizmat qiladi.

Eksport shartlarini yengillashtirishga qaratilgan boshqa choralar ham shu mantiqqa oid. Tovar uchun pul hali kelib tushmagan bo‘lsa ham eksportga qo‘yilgan cheklovning olib tashlanishi, invoys asosida eksportda oldindan 50 foiz tushum talabining bekor qilinishi, savdo uylari va distribyutorlar orqali eksportda valyuta tushumini ta’minlash muddatining 180 kundan 365 kunga uzaytirilishi tadbirkorga tashqi bozorda ko‘proq harakatlanish imkonini beradi.

Biznesda ba’zan bitta qoida katta imkoniyatni ochadi, bitta ortiqcha to‘siq esa butun shartnomani to‘xtatib qo‘yadi. Shuning uchun eksport siyosatidagi har bir tartibning tadbirkor hayotiga qanday ta’sir qilishi muhim. Qog‘ozdagi yengillikning ahamiyati ishlab chiqarish sexi, ombor, bank hisobvarag‘i va xorijlik xaridor bilan tuzilgan shartnomada sezilgandagina ortadi.

Eksportning ko‘payishi esa o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Chet elda xaridor paydo bo‘lsa, korxona ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Ishlab chiqarish ko‘lami kengaysa, yangi ishchi kerak bo‘ladi. Buyurtma ko‘paysa, xomashyoga talab ortadi. Logistika, qadoqlash, sertifikatlash, bank xizmatlari ham rivojlanadi. Bir eksport shartnomasi ortidan butun boshli iqtisodiy zanjir harakatga keladi.

Shu sababli eksportni faqat valyuta tushumi sifatida ko‘rish tor yondashuvdir. Eksport — korxonani o‘sishga majbur qiladigan maktab. Xorijlik xaridorning talabi mahalliy ishlab chiqaruvchini sifatni oshirishga chorlaydi. Raqobat texnologiyani yangilashga undaydi. Katta buyurtma ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi. Yangi bozor esa tadbirkorga yangi rejalar uchun qanot beradi.

Eng muhimi, bu jarayonda ishlab chiqaruvchi yolg‘iz qolmasligi kerak. Ishbilarmon bozor topadi, mahsulot ishlab chiqaradi, tavakkalni zimmasiga oladi. Davlatning vazifasi esa uning yo‘lidagi sun’iy to‘siqlarni kamaytirish, zarur infratuzilma yaratish, moliya va axborotga yo‘l ochishdan iborat.

Bugun eksport masalasiga berilayotgan e’tibor zamirida oddiy savdo manfaatidan ancha katta maqsad turibdi. Gap mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga munosib qiymat berish, tadbirkor mehnatini keng imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish va ishlab chiqarishni zamonaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish haqida bormoqda. Chunki har bir eksport shartnomasi ortida ishlab turgan korxona, yangi buyurtma, yangi ish o‘rni va insonning ertangi daromadi bor.

Shu bois, bugun tadbirkor uchun ochilayotgan har bir imkoniyatga iqtisodiyotning kelajagiga qo‘yilayotgan sarmoya, deb qarash mumkin. To‘siq kamaysa, harakat tezlashadi, axborot aniq bo‘lsa, qaror to‘g‘ri bo‘ladi. Bozor ochilsa, ishlab chiqarish ko‘lami kengayadi. Eng muhimi, tadbirkor o‘z mehnati bilan ishlab chiqargan mahsulotining qiymatini oshirish uchun zarur sharoitga ega bo‘ladi.

Milliy yuksalishning iqtisodiy mazmuni ham aynan shu jarayonda aniq namoyon bo‘ladi. Yuqori texnologiya, mehnat unumdorligi, kuchli ishlab chiqarish va faol eksport bir-biridan uzilgan tushunchalar emas, balki yagona iqtisodiy zanjirning bo‘g‘inlaridir. Uning har bir bo‘g‘ini mustahkamlangani sari mamlakatning iqtisodiy poydevori ham baquvvatlashadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hayotiy tashabbuslar qanotida

BUNYODKORLIK CHEGARA BILMAYDI



Uch tomoni tog‘lar bilan o‘ralgan Surxondaryo vohasi kengliklarida 3 millionga yaqin aholi yashamoqda. Islohotlar Amudaryo sohilidagi viloyat markazidan to o‘sha olis tog‘ bag‘ridagi qishloqlargacha birdek yetib bormoqda.





Boysunning baland tog‘larga tutashib ketgan hududlarida Qo‘rg‘oncha, Nazari, Aylongar, Shohtut, Gulibog‘ va Turkmandala qishloqlari joylashgan. Ularni tuman markazidan qariyb 50 kilometr olisdagi Xo‘jaidod mahallasi birlashtiradi. Betakror tabiati, musaffo havosi va o‘ziga xos manzaralari bilan ajralib turadigan mahallada qariyb 1500 aholi yashaydi.

So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar sabab bu joylarga olib boradigan yo‘llar yaxshilandi. Hatto ichki ko‘chalar ham asfalt qilinyapti. Yangi ko‘priklar qurilmoqda, aholi uchun zarur ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Masalan, ayni shu kunlarda Qo‘rg‘oncha va Nazari qishloqlarini bog‘laydigan yo‘lning 4 kilometri asfaltlanyapti. Bundan tashqari, Gulibog‘ qishlog‘ida qiymati 3 milliard so‘mlik ko‘prik qurilishi davom etyapti. Qurilish-bunyodkorlik ishlarida tog‘li hududning tabiiy sharoiti inobatga olinib, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni sel oqimlaridan himoyalash choralari ham ko‘rilyapti. Masalan, Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida 500 metr uzunlikdagi seldan himoya inshooti barpo etildi.

— Xo‘jaidod mahallasida tarixiy o‘zgarishlar bo‘lyapti. Qishloqlarimiz tarixida birinchi bor yo‘llarimiz asfaltlandi. Hatto ichki yo‘llar ham shahar ko‘chalaridan qolishmaydi, — deydi qishloq o‘qituvchisi Dilmurod Qosimov. — O‘quvchilarimiz uzoq yillar davomida qishda loy, yozda tuproq kechib maktabga qatnashga majbur edi. Hozir ravon va toza ko‘chalarda yuribmiz. O‘zgarishlar faqat yo‘l va transport infratuzilmasi bilan cheklanib qolgani yo‘q. Yaqin vaqt ichida maktabgacha ta’lim tashkiloti, bolalar uchun sport maydonchasini barpo etish ham reja qilingan.

Aholi uzoq yillar davomida kutgan o‘zgarishlar bugun tog‘li manzillarda yashovchi yurtdoshlarimiz kundalik hayotida o‘z aksini topmoqda. Yangi va ta’mirlanayotgan yo‘llar sabab tuman markaziga borish osonlashadi. Infratuzilma yangilanishi tibbiy xizmat, ta’lim va boshqa zarur ehtiyojlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Surxondaryo viloyatida 723 ta mahalla mavjud. Shundan 48 tasi Xo‘jaidod mahallasi singari chegara va olis, tog‘li hududlarda joylashgan. U yerda 740 mingdan ortiq oila yashaydi. Viloyatda 114 ta og‘ir mahalla alohida ro‘yxatga olinib, ular bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Bu manzillarda aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish kabi ishlar tizimli yo‘lga qo‘yildi.

Jarqo‘rg‘on tumanida 66 ta mahalla fuqarolar yig‘ini bor. Ularning 13 tasi “yashil”, 53 tasi “sariq” toifaga kiritilgan. Hozir bu mahallalarni yanada obod qilib, mavjud masalalarni hal etishga qaratilgan ishlar avjida. Alisher Navoiy, Yoshlik, Mustaqillik va Boymoqli mahallalariga “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” maqomi berilgan. E’tiborlisi, Mustaqillik va Boymoqli og‘ir toifadagi mahalla hisoblanardi. Hozir ularning qiyofasi tubdan yaxshilandi.

Navro‘z mahallasida uylar atrofi ilgari obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishga muhtoj edi. Bolalar uchun zamonaviy o‘yin maydonchasi yo‘q, yo‘llar, umumiy foydalanish hududlari va dam olish joylari holati talabga javob bermasdi. Hozir mahalla qiyofasi tubdan o‘zgarib, zamonaviy va obod hududga aylandi.

— Televizorda, gazetada ulkan bunyodkorlik ishlari haqida gap ketsa, hech kim ensa qotirmaydigan bo‘ldi. Negaki, bu o‘zgarishlarni har bir inson o‘z hayotida ko‘rib turibdi. Mahallalar yangilanib, o‘zgarishlar tinimsiz davom etmoqda. Bular xalqimiz qalbida shukronalik hissini uyg‘otmoqda. Katta maqsadlar bilan yashashga undayapti, — deydi Navro‘z mahallasi raisi Nigora Xoliqova.

Jarqo‘rg‘on tumani markazidan olisdagi Oftobqo‘rg‘on mahallasida ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishga qaratilgan ishlar davom etmoqda.

— Mahallamizdagi 120 o‘ringa mo‘ljallangan 48-maktabgacha ta’lim muassasasi ta’mirlandi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Anvar Ochilov. — 1978-yilda qurilgan 56-umumiy o‘rta ta’lim maktabi mukammal ta’mirdan chiqarildi. Hozir 710 o‘quvchini bag‘riga olgan maktabda ta’lim jarayoni uchun zarur sharoit yaratilgan. 2009-yilda qurilgan, 180 o‘ringa mo‘ljallangan qo‘shimcha bino ham ta’mirlanib, foydalanish uchun munosib holatga keltirildi.

Prezidentimizning “2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida Denov tumanidagi markazdan olis, og‘ir toifadagi 26 ta mahallaning infratuzilmasi yaxshilanmoqda. Masalan, Fayzli mahallasi og‘ir toifadagi hudud edi. “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” loyihasi doirasida hududdagi infratuzilma obyektlari tubdan yangilanyapti. Mahalla ahli tashabbusi bilan jamg‘arilgan 1 milliard so‘m hisobidan 3 ta ichki ko‘cha asfalt qilindi. Qabristonga olib boruvchi 800 metr yo‘l betonlandi. Fayzli mahallasi endi chindan ham fayzga kirib bormoqda.

Sho‘rchida tumanida esa “Yangi O‘zbekiston qiyofasi”ni aks ettiruvchi namunaviy hudud sifatida Obodon va Guliston mahallalari tanlab olingan. Bu hududlarni obodonlashtirish va infratuzilmani bunyod etish maqsadida 10 milliard so‘m qiymatdagi qurilish ishlari davom etmoqda. Jumladan, konsepsiya doirasida Guliston mahallasida keng ko‘lamli obodonlashtirish va infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilmoqda.

— Mahallamizda yechimini kutayotgan bir qancha masalalar bor edi. Masalan, mahalla hududidan o‘tuvchi katta avtomobil magistralining ikkinchi tomonida aholi harakatlanishi uchun piyodalar yo‘lagi yo‘q edi. Hozir bu muammo yechimini topdi. Aholining xavfsiz va qulay harakatlanishi uchun yo‘l kesishmalarida xavfsiz o‘tish joylarini tashkil etish, yoritish tizimlari o‘rnatish, nogironligi bo‘lgan shaxslar va bolalar uchun qulay tushish-chiqish joylarini qurish ishlari davom etyapti, — deydi “Guliston” MFY xotin-qizlar faoli Gulixol Mirzanova. — Shuningdek, 17 ta ichki ko‘cha birin-ketin asfalt qilinib, yangi elektr tarmog‘i tortilmoqda. Yaqin vaqt ichida ichimlik va sug‘orish suv ta’minotini yaxshilash uchun quyosh paneli o‘rnatilib, nasos hamda zamonaviy transformator punktini joylashtirish ko‘zda tutilgan.

Sho‘rchi tumanidagi Egarchi, Baxshtepa, Tamshush, To‘la va Yangiariq mahallalarida ham infratuzilmani yaxshilash, ichki yo‘llarni ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda. Buning uchun davlat byudjetidan 15 milliard so‘m ajratilgan. Hozir tumanda “O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish” davlat dasturi doirasida kanalizatsiya tizimini qurish bo‘yicha ish boshlangan. Loyiha doirasida tumandagi 13 ta mahallada 49 kilometr oqova suv tarmog‘i, 22,7 kilometr ichimlik suv tarmog‘i, 3 ta ichimlik suv inshooti, 131 kilometr ichki yo‘llarni asfaltlash ko‘zda tutilmoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Farg‘ona davlat texnika universiteti muhandislik, texnologik, iqtisodiy va innovatsion salohiyati bilan ushbu jarayonda faol ishtirok etishi uchun zarur institutsional imkoniyatlarga ega. Universitetda startap markazlari, sanoat bilan dual ta’lim, sun’iy intellekt loyihalari, xorijiy universitetlar va kompaniyalar bilan hamkorlik, texnopark tashabbuslari va yoshlarni innovatsiyaga jalb qilish bo‘yicha amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda.



Mulohaza

INSON QADRI, BILIM VA TARAQQIYOT UYG‘UNLIGI



Rustam TOJIYEV,
Farg‘ona davlat texnika universiteti rektori, professor

Prezidentimiz mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘yayotganini ta’kidlab, kelgusi o‘n yillik milliy yuksalish davri bo‘lishini aytdi. Ushbu yangi bosqichning mazmun-mohiyati inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dastur orqali amalga oshirilishini ma’lum qildi.

Bu g‘oyani oddiy strategik shior emas, balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ma’naviy taraqqiyotini yagona mantiqqa birlashtiruvchi konseptual yondashuv sifatida tushunish muhim.

Bundan o‘n yil avval O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida asosiy e’tibor, avvalo, mavjud ta’lim dasturlari asosida mutaxassis tayyorlash, nazariy bilim berish va an’anaviy o‘qitish usullarini takomillashtirishga qaratilgan edi. Bugun esa bu tizimda tub sifat o‘zgarishlari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda: oliy ta’lim muassasasi endilikda faqat diplom beruvchi maskan emas, balki ilm-fan, innovatsiya, zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarishni birlashtiruvchi muhim intellektual markazga aylanmoqda. Ta’limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi, dual ta’lim, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, startaplar, xalqaro hamkorlik va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishga e’tiborning kuchayishi so‘nggi yillardagi barqaror o‘zgarishlarning amaliy ifodasidir. Bu jarayon oliy ta’lim oldiga nafaqat bilimli, balki zamonaviy texnologiyalarni yaratish va qo‘llashga qodir, tashabbuskor hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdek yangi vazifani qo‘ymoqda.

Farg‘ona davlat texnika universiteti kabi texnik, muhandislik, iqtisodiy va innovatsion salohiyatni birlashtirgan oliy ta’lim muassasasi uchun mazkur vazifalar, ayniqsa, muhim. Chunki yangi taraqqiyot davrida universitet ilm-fan, texnologiya, ishlab chiqarish, biznes va jamiyat o‘rtasidagi intellektual markazga aylanishi lozim.

Asosiy kapital

Birinchi milliy dasturning bosh g‘oyasi — bilim va malakani mamlakat taraqqiyotining asosiy kapitaliga aylantirish. Mazkur yondashuvning mazmun-mohiyati shundaki, zamonaviy iqtisodiyotda asosiy resurs endi xomashyo emas, intellektual salohiyatdir.

Universitetimizda bu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlariga yanada yaqinlashtirish, dual ta’limni kengaytirish, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, robototexnika, Smart City, 3D modellashtirish va zamonaviy muhandislik sohalari bo‘yicha kompetensiyalarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada aniq maqsadli amaliy ishlar boshlangan. Jumladan, “Oliygoh kubogi” tanlovida sun’iy intellekt, dronlar, kiberxavfsizlik, 3D modellashtirish, qishloq xo‘jaligi texnikasi va muhandislik konstruksiyalari bo‘yicha 352 talaba ishtirok etdi. Ularning 60 nafari g‘olib bo‘ldi. 4 ta startap loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi. Bunday raqamlar yoshlarda innovatsion fikrlashni shakllantirish bo‘yicha ta’limdan amaliy natijaga o‘tish jarayonini ko‘rsatadi.

Shuningdek, universitetda tashkil etilgan startap markazi talabalar va professor-o‘qituvchilar g‘oyalarini amaliy mahsulotga aylantirish, akseleratsiya, biznes modellashtirish, sun’iy intellekt, robototexnika va AT ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Nazarimizda, birinchi milliy dasturning universitet miqyosidagi eng muhim natijasi bunday bo‘lishi kerak: talaba bitirganda faqat nazariy bilimga emas, balki bozor talab qilayotgan aniq texnologiya, dastur, loyiha yoki ishlab chiqarish kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur.



Sog‘liq — muhim boylik

Ikkinchi milliy dastur aholining sog‘lom va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga qaratilgan. Prezidentimiz nutqida profilaktikaga asoslangan tibbiyot modeliga o‘tish, davlat tibbiy sug‘urtasini keng joriy etish va O‘zbekistonni zamonaviy tibbiyot, farmatsevtika hamda biotexnologiyalar markazlaridan biriga aylantirish vazifalari belgilandi.

Dasturni oliy ta’lim tizimidan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki aholi salomatligining katta qismi insonning turmush tarzi, mehnat sharoiti, ekologik muhit va profilaktik madaniyatga bog‘liq. Texnika universiteti nuqtai nazaridan, bu vazifa ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini ilmiy asosda tashkil etish, ekologik muhandislik, toza ishlab chiqarish texnologiyalari va resurs tejamkor tizimlarni keng joriy etish, talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Universitetda sport infratuzilmasini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilar, talaba yoshlarni sportga keng jalb qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish vazifalari belgilandi. Demak, inson salomatligi masalasi universitet uchun faqat tibbiy xizmat emas, balki xavfsiz kampus, ekologik toza muhit, sog‘lom mehnat, sport, psixologik barqarorlik va profilaktik madaniyatni birlashtirgan kompleks boshqaruv tizimidir.

Yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi

Uchinchi milliy dastur iqtisodiyotni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazishga qaratilgan. U texnik universitetlarning iqtisodiyotdagi rolini tubdan o‘zgartiradi. Ya’ni endi universitet ishlab chiqarishga tayyor kadr yetkazib beruvchi muassasa bo‘lib qolmaydi. Texnologiya yaratuvchi va uni tijoratlashtiruvchi subyektga aylanadi.

Universitetimizda bu yo‘nalishda aniq institutsional asoslar shakllanmoqda. Janubiy Koreyaning “AHA Co., Ltd” kompaniyasi bilan hamkorlikda talabalar uchun grantlar, dual ta’lim, ishlab chiqarish amaliyoti, bandlik va ishlab chiqarishda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qo‘shma loyihalar rejalashtirilgan. Xitoyning “Speed-Fit Technology” kompaniyasi bilan qishloq xo‘jaligiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan aeroinjiniring texnoparkini shakllantirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarish bilan bog‘lash va dual ta’limni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Universitet delegatsiyasining Shandun muzofotiga tashrifi yakunlariga ko‘ra, Farg‘onada qishloq xo‘jaligiga yuqori texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan texnopark tashkil etish bo‘yicha texnologik hamkorlik shartnomasi imzolangan. Bunday misollarning umumiy mantig‘i bitta: universitet — ishlab chiqarish — innovatsiya — investitsiya zanjiri shakllanmoqda.

Kelgusi bosqichda har bir kafedra kamida bitta sanoat korxonasining texnologik yoki boshqaruv muammosini ilmiy loyihaga aylantirishi maqsadga muvofiq. Masalan, energetika kafedralari energiya yo‘qotishlarini kamaytirish, mashinasozlik yo‘nalishlari avtomatlashtirish, iqtisodiyot va menejment kafedralari esa xarajatlarni prognozlash, resurslarni optimal taqsimlash va raqamli boshqaruv modellarini ishlab chiqishi mumkin. Shunda ilmiy maqola va dissertatsiya ishlab chiqarishdan uzilgan akademik mahsulot emas, balki muayyan iqtisodiy qiymat yaratadigan innovatsion yechimga aylanadi.

Suv va tabiatga g‘amxo‘rlik

To‘rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan. Prezidentimiz nutqida suv tejovchi texnologiyalar qamrovini kengaytirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, shahar va tuman markazlarida yashillik darajasini oshirish maqsadlari belgilandi.

Farg‘ona vodiysi sharoitida suv va ekologik xavfsizlik masalasi, ayniqsa, muhim. Aholi zichligi, sanoat konsentratsiyasi, yer va suv resurslariga yuqori bosim ekologik muammolarni ilmiy yondashuv asosida hal qilishni talab etadi. Universitet bu yerda suv sarfini raqamli datchiklar orqali nazorat qilish, aqlli sug‘orish tizimlari, chiqindilarni qayta ishlash, sanoat suvlarini tozalash va qayta aylanma ishlatish, energiya tejamkor binolar, “yashil” logistika, ekologik monitoring kabi sohalarda amaliy texnologik yechimlarni taklif qilishi mumkin.

Turkiyaning “Farmicca” kompaniyasi bilan o‘tkazilgan muzokaralarda gidroponika asosida ko‘p qavatli vertikal ferma texnologiyalarini Farg‘ona viloyatida joriy etish masalasi muhokama qilingani shunday yondashuvga amaliy misoldir. Bunday texnologiyalar suv sarfini kamaytirish, yuqori hosildorlikka erishish va cheklangan maydonda samarali ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu bois, “yashil” texnologiyalar universitet ilmiy siyosatining alohida yo‘nalishi emas, balki barcha muhandislik va iqtisodiy dasturlarga kirib borishi kerak.

Qonun ustuvorligi mustahkam poydevor

Beshinchi milliy dastur sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirishga qaratilgan. Prezidentimiz huquqiy tarbiyani tizimli tashkil etish, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, kiberjinoyatchilik, giyohvandlik, odam savdosi, yashirin iqtisodiyot va inson huquqlarini kamsitishga qarshi kurashni kuchaytirish vazifalarini belgiladi.

Qonun ustuvorligi ta’lim muassasasida, avvalo, boshqaruvning shaffofligi, akademik halollik va mas’uliyat bilan namoyon bo‘ladi. Universitet muhitida korrupsiyaga murosasizlik, plagiatning oldini olish, intellektual mulk huquqini himoyalash, adolatli baholash tizimi, teng imkoniyatlar va ochiq tanlov mexanizmlari huquqiy madaniyatning amaldagi ko‘rinishidir.

Mahalla — rivojlanish ehtiyojlarini belgilaydigan ijtimoiy institut

Oltinchi milliy dastur mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirishni nazarda tutadi. Prezidentimiz nutqida tuman byudjeti, investitsiya dasturi va infratuzilma loyihalari mahallaning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilishi ta’kidlangan.

Bunday yondashuv ilm-fan uchun ham yangi vazifani qo‘yadi. Universitet tadqiqot mavzularini faqat nazariy qiziqishdan emas, balki hudud va aholi muammolaridan kelib chiqib belgilashi zarur. Masalan, muayyan mahallada ichimlik suv, energiya ta’minoti, chiqindi, transport, bandlik yoki kichik biznes masalasi mavjud bo‘lsa, universitetning tegishli kafedrasi bu muammoni ilmiy-amaliy loyihaga aylantirishi mumkin.

Muhandislar texnik yechim taklif qiladi, iqtisodchilar xarajat-samaradorlik hisobini amalga oshiradi, menejerlar boshqaruv modeli yaratadi, AT mutaxassislar raqamli platforma yoki monitoring tizimini ishlab chiqadi. Shunday yondashuv orqali universitet va jamiyat o‘rtasidagi masofa qisqaradi. Kelgusida Farg‘ona davlat texnika universitetida “mahalladan — ilmiy yechimga” tamoyili asosida hududiy muammolar bankini shakllantirish maqsadga muvofiq. Har bir fakultet ushbu bazadan muammolarni tanlab, talabalar bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy loyihalarni amaliy ehtiyojlar bilan bog‘lashi mumkin.

Tinchlik, do‘stlik va xalqaro hamkorlik

Yettinchi milliy dastur O‘zbekistonning tinchlik, do‘stlik va bag‘rikenglik makoni sifatidagi nufuzini yuksaltirishga qaratilgan. Oliy ta’lim bu vazifaning eng tabiiy maydonlaridan biridir. Akademik mobillik, xalqaro ilmiy loyihalar, qo‘shma ta’lim dasturlari va talabalar almashinuvi nafaqat bilim, balki madaniyatlar o‘rtasidagi ishonch va muloqotni ham kuchaytiradi.

Farg‘ona davlat texnika universitetida bu yo‘nalishda so‘nggi davrda faol ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston va Qirg‘iziston oliy ta’lim muassasalari rektorlarining III forumi doirasida Farg‘ona davlat texnika universiteti, To‘xtomamatov nomidagi xalqaro universitet va O‘sh texnologiya universiteti o‘rtasida qo‘shma ta’lim, akademik almashinuv va ilmiy loyihalarni nazarda tutuvchi memorandum imzolandi. Koreya Respublikasining SeoulTech universiteti bilan sun’iy intellekt, Smart City, robototexnika va kiberxavfsizlik sohalarida qo‘shma loyihalar, professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilar stajirovkasini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Bu kabi aloqalarni faqat xalqaro reyting yoki statistik ko‘rsatkich sifatida baholash to‘g‘ri emas. Ularning asosiy qiymati yangi ilmiy maktablar, texnologiyalar, professional aloqalar va talabalar uchun global imkoniyatlar yaratilishidadir.

Prezidentimiz belgilagan yettita milliy dastur mazmunini tahlil qilar ekanmiz, ularning barchasini birlashtirib turuvchi bosh g‘oya inson qadrini bilim, salomatlik, texnologiya, ekologik mas’uliyat, adolat, mahalliy tashabbus va tinchlik orqali ta’minlash ekani namoyon bo‘ladi. Bu nuqtai nazardan, zamonaviy universitetning missiyasi ham o‘zgarmoqda.

Farg‘ona davlat texnika universiteti bu borada o‘ziga xos afzallikka ega. Universitetda texnika, energetika, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, menejment, qurilish va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarining bir muhitda birlashgani katta imkoniyat yaratadi. Masalan, “aqlli korxona” loyihasida muhandis avtomatlashtirish tizimini yaratadi, AT mutaxassis algoritm yozadi, iqtisodchi uning iqtisodiy samaradorligini hisoblaydi, menejer esa ishlab chiqarishga joriy etish modelini ishlab chiqadi. Bunday fanlararo yondashuv milliy yuksalish davri talab qilayotgan yangi avlod universitetining asosiy belgisi hisoblanadi.

Universitetimizda energetika sohasida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ bilan hamkorlikda dual ta’limni rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Unda 3-, 4-bosqich talabalarining nazariy bilimlarini bevosita ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlash, ilmiy ishlanmalarni tarmoq ehtiyojlariga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan. Model boshqa tarmoqlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Har bir fakultet uchun yirik sanoat korxonasi strategik sherik sifatida belgilansa, talabalar amaliyotidan tortib, ilmiy tadqiqot va startaplargacha bo‘lgan jarayon yagona tizimga aylanadi. Ishlab chiqarish korxonasi muammoni beradi, universitet ilmiy yechim ishlab chiqadi, talaba loyiha jarayonida kasbiy ko‘nikma oladi, korxona esa innovatsion mahsulot yoki texnologiyaga ega bo‘ladi.

Yettita milliy dasturni amalga oshirish jarayonida oliy ta’lim muassasalari, ayniqsa, texnika universitetlari alohida o‘rin tutadi. Chunki dasturlarda belgilangan deyarli har bir vazifaning yechimi bilim, ilm-fan, texnologiya va yuqori malakali kadrlarga bog‘liq.

Farg‘ona davlat texnika universiteti muhandislik, texnologik, iqtisodiy va innovatsion salohiyati bilan ushbu jarayonda faol ishtirok etishi uchun zarur institutsional imkoniyatlarga ega. Universitetda startap markazlari, sanoat bilan dual ta’lim, sun’iy intellekt loyihalari, xorijiy universitetlar va kompaniyalar bilan hamkorlik, texnopark tashabbuslari va yoshlarni innovatsiyaga jalb qilish bo‘yicha amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Milliy yuksalish davrida universitetning asosiy mezoni uni qancha mutaxassis bitirgani emas, balki qancha ilmiy yechim yaratgani, nechta texnologiyani ishlab chiqarishga olib kirgani, necha nafar yoshni zamonaviy kasbga tayyorlagani va hudud taraqqiyotiga qanday amaliy qiymat qo‘shgani bilan belgilanishi lozim. Shunday yondashuvdagina ta’lim taraqqiyotga, ilm texnologiyaga, g‘oya mahsulotga, yoshlar salohiyati esa mamlakatning real iqtisodiy va intellektual qudratiga aylanadi. Milliy yuksalishning asl mazmuni ham ana shunda: insonning bilimi, mehnati, iste’dodi va tashabbusi davlat taraqqiyotining eng katta boyligiga aylanishidadir.

Munosabat

MUKOFOT PULIGA UY QURAMAN

Yoshligimdan o‘qituvchilikka havasim juda kuchli edi. Lekin gohida ikkilangan vaqtlarim ham bo‘lgan. Chunki har yili mavsumda dala shiyponlariga o‘qituvchilar va o‘quvchilar joylashib, paxta terimida ishtirok etardi. Shunda ustozlarning ta’lim-tarbiya qolib, qishloq xo‘jaligi bilan andarmon yurishini ko‘rib, juda achinardim.

Maktabni tamomlagach, oliygohning pedagogika yo‘nalishiga o‘qishga kirdim. Tarix fani mutaxassisi diplomini olib, maktabimizga ishga kelganimda juda ko‘pchilik hayron qolgan. U paytlari universitetda o‘qigan yoshlarning shaharda ishga qolishi urf edi. Muallimlik vazifasi oson kechmasligini shunda bilgandim. Ba’zilar “O‘qituvchilik qilib kosang oqarmaydi” degan gaplarni ham dangal aytgan. Lekin bu pichinglar meni ortga qaytarolmaydi. Chunki orzular sari yo‘lga chiqqandim. Ortga qaytishga yo‘l yo‘q edi. Qo‘limga kitob-daftarni olib, maktabga dadil kirib bordim.

Birinchi maoshimni qo‘lga olib, sanaganimda sakkiz yuz ming so‘m chiqdi. Ba’zi tengdoshlarim bu oylikka kun ko‘rib bo‘lmasligini aytib, boshqa ish bilan shug‘ullanishimni taklif qildi. Baribir ahdimdan qaytmadim. Sababi, o‘qituvchilikni yaxshi ko‘rib, tanlaganman. Shu bois, bir kun kelib, eng yuqori maosh oluvchi muallimlardan biri bo‘laman, deya oldimga maqsad qo‘ydim. Shu niyatim sari intildim. Ammo ko‘nglimda “Bu holat doimiy davom etsa, men qachon uy-joy qilaman, qachon o‘z orzumdagidek yashayman?” degan ikkilanish ham yo‘q emas edi. Shunday bo‘lsa-da, o‘z ustimda ishlashni kanda qilmadim. Bir kun kelib, barcha qiyinchiliklar ortda qolishiga o‘zimni ishontira oldim.

Vaqt o‘tib, yangi O‘zbekistonda ta’limga ham katta e’tibor qaratila boshladi. O‘quv binolari yangidan qurildi, mavjudlari qayta ta’mirlandi. Maktablarga to‘liq zamonaviy jihozlar keltirildi. Qishda sovuq, yozda issiq o‘quv xonalari tartibga keldi. Bu o‘zgarishlar, tabiiyki, ishga qiziqishimizni yanada oshirdi. Bir paytlar tirikchilik vajidan maktabdan ketgan pedagoglar yana sinfxonalarga qaytdi. Muallimning qadri asta-sekin tiklana boshladi. O‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Maoshimiz uch-to‘rt barobar oshirildi. Yuqori foizli ustamalar belgilandi.

Shunday pallada olg‘a intilib, faol bo‘lishga harakat qildim. Natija yomon bo‘lmadi. O‘tgan yili maoshim ming dollarga chiqqanida ko‘zlarimga ishonmagandim. Mehnat qilsa, barchasiga erishish mumkin ekan-da. Hozir ikki ming dollarga teng maosh olyapman. Bir men emas, maktabimizning o‘zidan 15 hamkasbim ming, 4 nafari ikki ming dollarga teng oylik oladi. Bugun muallim mashina sotib olyapti. Chet elga sayohatga boryapti. Bu bir paytlar xayolimizga ham kelmagan.



Joriy yil boshida “Yil o‘qituvchisi” tanlovi o‘tkazilishi haqida eshitganim zahoti qatnashish ishtiyoqi paydo bo‘ldi. Barcha bosqichda muvaffaqiyatli ishtirok etib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdim. Bu, eng avvalo, kasbimga mehrning bir ifodasi. Qolaversa, maktabimizda har bir o‘qituvchi erkin ishlashi uchun yaratilgan sharoit mahsuli deb bilaman.

O‘ttiz yoshdaman. Aslida, yosh o‘qituvchining olti yilda katta natijaga erishishi — juda quvonchli voqea. Eng muhimi, mehnatimga yarasha rag‘bat ko‘ryapman. Keksa ustozlarimiz aytganidek, bugungi o‘qituvchiga qancha havas qilsangiz, arziydi. Qolaversa, “Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘oliblarining har biri bazaviy hisoblash miqdorining 1400 baravari, ya’ni 616 million so‘m bilan mukofotlanishi muallimlar uchun munosib rag‘bat bo‘ldi.

To‘g‘risi, katta mablag‘ bank plastik kartamga tushmaguncha ishonmagandim. Tanishlarim qo‘ng‘iroq qilib, tabriklamoqda. Menga havas qilib, o‘g‘il-qizi o‘qituvchi bo‘lishini niyat qilganlar ko‘paydi. Bir qancha orzularim amalga oshadigan bo‘ldi. Avvalo, mukofot puliga yangi uy-joy qilmoqchiman. Umuman olganda, zamonaviy o‘qituvchi zamonaviy xonadonda istiqomat qilishi kerak. Mukofot puli shu fikrim amalga oshishida katta turtki bo‘ldi.

Akmal SAFAROV,
Mirishkor tumanidagi 20-maktab o‘qituvchisi, “Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘olibi



Ehtirom



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON SPORTINING OLTIN AVLODI

tarixiy g‘alabalar va rekordlarni qo‘lga kiritib xalqimizning yuksak ishonchini oqladi

Bu galgi Osiyo o‘yinlaridagi natijalar faqat medallar soni emas, balki O‘zbekiston sporti uchun birinchi marta qayd etilgan natijalar, yangi chempionlar va rekordlar bilan ham katta ahamiyatga ega.

Dastlab Abdulvahob Rashidov erkaklar o‘rtasidagi karate bahslarida, Shohsanam Sherzodova yakka holda kanoeda eshkak eshish dasturida, O‘tkirbek Jo‘rayev esa sport gimnastikasi bo‘yicha O‘zbekistonning Osiyo o‘yinlaridagi birinchi va tarixiy oltin medallarini olishga muvaffaq bo‘lgani terma jamoamiz a’zolarini yuksak marralar sari ruhlantirdi.

Boshlanishi 1-betda

Xo‘sh, qaysi sport turida raqobatbardosh maktab shakllandi? Qaysi yo‘nalishda bitta kuchli sportchiga emas, bir nechta munosib nomzodga tayanish mumkin? Yangi avlod katta musobaqada bosimni qanday qabul qilyapti? Avval natija kutilmagan sport turlaridagi o‘sish tasodifmi yoki muayyan jarayonning natijasi? Osiyo o‘yinlari natijasi ana shu savollarning ayrimlariga javob berdi, ayrimlarini esa yanada dolzarb masalaga aylantirdi.

Bu, ayniqsa, hozirda ahamiyatli. Parij olimpiadasidan keyin boshlangan yangi davr endi dastlabki bosqichdan o‘tib bo‘ldi. Los-Anjeles — 2028 uzoq istiqbol emas. Terma jamoalarning asosiy tarkibi, sportchilar o‘rtasidagi ichki raqobat, qaysi yo‘nalishlarga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligi tobora aniqlashib boradigan



palla boshlandi. Bunday vaziyatda Osiyo o‘yinlari keyingi ikki yillik ishning qayerdan davom ettirilishini ko‘rsatadigan jiddiy sinov vazifasini ham bajaradi.

19-sentabrdan 4-oktabrga qadar Yaponiyada o‘tkazilgan XX yozgi Osiyo o‘yinlarida qit’aning 45 delegatsiyasidan 11 mingga yaqin sportchi ishtirok etdi. O‘zbekiston musobaqada o‘z tarixidagi eng katta tarkib — sportning 42 turi bo‘yicha 396 nafar atlet bilan qatnashdi. Bellashuvlar yakunida delegatsiyamiz 21 oltin, 25 kumush va 24 bronza — jami 70 medal jamg‘arib, umumjamoa hisobida beshinchi o‘rinni egalladi. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida ham, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar orasida ham eng yuqori natija bo‘ldi.

Kuni kecha sportchilarimiz Toshkent aeroportida tantanali kutib olindi. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston sport delegatsiyasi a’zolariga tabrik yo‘lladi.

“Osiyo o‘yinlarida erishilgan har bir yutuq, har bir hayajonli daqiqa biz uchun o‘ziga xos bayram, zavq va quvonch ayyomi ekanini qariyb bir oy davomida barchamiz chin dildan his etib yashadik.

Albatta, bepoyon Osiyo qit’asining o‘ziga xos Olimpiya o‘yinlari bo‘lgan ushbu musobaqalardagi yuksak natijalar o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Ularning zamirida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar, yaratilayotgan sharoitlar, yosh iste’dod egalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz mujassamdir”, deyiladi tabrikda.

1,90 metr natija qayd etgan Barnoxon Sayfullayeva oltin medalni qo‘lga kiritish bilan birga shaxsiy rekordini ham yangiladi.

Yengil atletikachimiz Sharifa Davronova, bokschimiz Abdumalik Xalokov ikki karra, badiiy gimnastika bo‘yicha Taxmina Ikromova uch karra Osiyo o‘yinlari chempioni degan sharafli nomga sazovor bo‘lib, qit’amizda tengsiz ekanini isbotladi.

Akademik eshkak eshish bo‘yicha yaqinda bo‘lib o‘tgan jahon chempionatida tarixiy oltin medalni qo‘lga kiritgan Shahzod Nurmatov va Sobir Safaraliyev juftligi murosasiz kechgan Osiyo o‘yinlari bahslarida ham yetakchilikni saqlab qoldi.

Mardi maydon sportchilarimiz Osiyo va jahon rekordlarini yangilab, sport tarixiga o‘z nomini zarhal harflar bilan muhrlab qo‘ygani musobaqalarning eng yorqin sahifalarini tashkil etdi. Jumladan, afsonaviy og‘ir atletikachimiz Akbar Jo‘rayev 197 kilogramm natija bilan jahon va Osiyo rekordini yangilashga erishdi. G‘oyat dramatik ruhda kechgan bellashuvlarda bu atletimiz Osiyo o‘yinlari rekordini o‘rnatgani muxlislar qalbidan chuqur joy olgan unutilmas voqea bo‘ldi.

O‘q otish bo‘yicha Vladimir Svechnikov esa Osiyo o‘yinlari oltin medalini birinchi marta O‘zbekistonga olib kelgani va Osiyo o‘yinlari rekordini o‘rnatgani qahramonlikdir. Mohir dzyudochimiz Muzaffarbek To‘raboyev o‘ziga xos jasorat ko‘rsatib, chorak finalda koreyalik raqibi, Parij — 2024 olimpiadasi sovrindori Kim Mun Jongni, final bahsida esa dzyudo vatani bo‘lmish Yaponiya vakili Ota Hyogani mag‘lub etdi va Osiyo o‘yinlarida ikki vazn toifasida g‘alaba qozongan ilk chempion sifatida tarixga kirdi.

Shu o‘rinda o‘zbek dzyudochilarining 2 oltin, 2 kumush va 3 bronza medalni qo‘lga kiritib, 32 davlat vakillari ishtirokidagi kuchli raqobat sharoitida Yaponiyadan keyin umumjamoa hisobida ikkinchi o‘rinni egallagani O‘zbekiston dzyudo sportidagi eng yirik va salmoqli natijadir.

Uch ming yillik tarixga ega o‘zbek kurashi bo‘yicha polvonlarimiz ham xalqimizning ishonchini munosib oqladi. Ushbu yo‘nalishda 6 oltin medalning to‘rttasini Ahror Ziyodullayev, Shohruxxon Baxtiyorov, Ibodatxon Agojonova va Pokizaxon Kamoldinova qo‘lga kiritdi.

— Balandlikka sakrashda ba’zan ikki-uch santimetr natija ham musobaqa taqdirini hal qiladi, — deydi Osiyo o‘yinlari chempioni Barnoxon Sayfullayeva. — Shuning uchun har bir balandlikka alohida vazifa sifatida qaraymiz. Aichi va Nagoyada men uchun asosiy maqsad, albatta, medal uchun kurashish edi. Lekin musobaqa jarayonida eng yaxshi natijamni ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ldi. 1 metr 90 santimetr marrani zabt etib, rekordimni yangilaganim chempionlikning men uchun ahamiyatini oshirdi. Bunday natija bir musobaqaning o‘zida paydo bo‘lib qolmaydi. Balandlikka sakrashda texnika, sakrash paytidagi harakat va jismoniy holat o‘zaro bog‘liq. Tayyorgarlik davomida shu elementlarning har biri ustida ishladik. Katta musobaqada esa mashg‘ulotda qilgan ishingni bosim ostida takrorlay olishing kerak. Men uchun Osiyo o‘yinlarining eng muhim jihatlaridan biri ham shu bo‘ldi. Albatta, 1,90 metr bilan cheklanib qolish niyatim yo‘q. Endi natijani barqarorlashtirish va undan ham yuqori ko‘rsatkichlarga chiqishim kerak. Chunki Osiyo miqyosida chempion bo‘lish bilan jahon va olimpiada darajasida raqobatlashish o‘rtasida farq bor. Keyingi tayyorgarlikda shu farqni qisqartirish asosiy vazifalardan biri bo‘ladi.

Hozir O‘zbekiston yengil atletikasida yosh sportchilar orasida ham yaxshi natijalar ko‘rinyapti. Aichi va Nagoyadagi medallar bu yo‘nalishda imkoniyat borligini ko‘rsatdi. Endi bu natijalarni bir martalik muvaffaqiyat qilib qoldirmay, yirik musobaqalarda muntazam takrorlay olish muhim.

Yengil atletikada shaxsiy rekordlar va yangi nomlar e’tiborga tushgan bo‘lsa, an’anaviy kuchli yo‘nalishlarda ham o‘zbekistonlik sportchilar yuqori mavqeini saqlab qoldi. Ayniqsa, boks musobaqalarida terma jamoa vakillarining natijalari bu sport turida shakllangan kuchli raqobat muhiti va zaxira hali ham asosiy ustunliklardan biri ekanini ko‘rsatdi.

— O‘zbekiston boksida har bir yirik musobaqaga talab yuqori. Chunki terma jamoamiz olimpiada, jahon va Osiyo miqyosida natija ko‘rsatib kelyapti, — deydi Osiyo o‘yinlari chempioni To‘rabek Habibullayev. — Shu sabab biz ringga chiqqanimizda raqiblar ham O‘zbekiston bokschisiga qarshi alohida tayyorgarlik ko‘radi. Aichi va Nagoyada ham oson jang bo‘lmadi. Har bir bosqichda raqibning uslubiga qarab ishlash, murabbiylar bergan taktik vazifani bajarishga harakat qildik. 90 kilogrammgacha vazn toifasida raqibning bitta kuchli zarbasi yoki himoyadagi bitta xato jangning borishini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shuning uchun faqat hujum emas, masofani his etish, jang sur’atini nazorat qilish, ochkolar bo‘yicha vaziyatni to‘g‘ri baholash ham muhim. Musobaqada ayrim janglarda taktikani o‘zgartirishga to‘g‘ri keldi. Menimcha, chempionlikka erishishda shu jihat ham ahamiyatli bo‘ldi. Erkaklar terma jamoasi umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni oldi. Lekin boksda raqobat qizg‘in bo‘ladi. Osiyoda O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda ham kuchli bokschilar bor. Jahon miqyosiga chiqilganda raqobat yanada oshadi. Shuning uchun Osiyo o‘yinlaridagi chempionlikni yakuniy nuqta deb emas, keyingi bosqich uchun natija deb bilaman. Eng katta maqsadlardan biri — Los-Anjeles olimpiadasida g‘alaba qozonish. Ungacha hali vaqt bor va tarkibdagi o‘rin uchun ham raqobat bo‘ladi. Shu davrda texnik va jismoniy tayyorgarlikni yanada oshirish, xalqaro musobaqalarda ko‘proq tajriba to‘plash kerak.



O‘zbekiston delegatsiyasining umumiy natijasiga kurashchilarimiz ham salmoqli hissa qo‘shdi. Polvonlarimiz to‘rt bor chempionlikni qo‘lga kiritdi, yana ikki vazn toifasida bronza medalga sazovor bo‘ldi. Natijada O‘zbekiston terma jamoasi kurash bo‘yicha umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladi.

— Kurash O‘zbekistonning milliy sport turi bo‘lgani uchun bizdan har qanday xalqaro musobaqada yuqori natija kutiladi, — deydi O‘zbekiston kurash federatsiyasi raisi o‘rinbosari Uyg‘un Umarov. — Lekin bugun kurash faqat O‘zbekiston sportchilari ustunlik qiladigan sport turi emas. Osiyoning qator mamlakatlarida yaxshi maktablar shakllangan, kuchli polvonlar yetishib chiqyapti. Raqiblar ham sportchilarimizni,



ularning uslubi va kuchli jihatlarini o‘rganib keladi. Shu ma’noda, Osiyo o‘yinlarida har bir medal uchun jiddiy raqobat bo‘ldi. Jamoamiz 4 oltin va 2 bronza medal oldi va kurash bo‘yicha umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladi. Chunki to‘rtta vaznda finalda yengish sportchilarning nafaqat texnik jihatdan, balki hal qiluvchi bellashuvlarda psixologik jihatdan ham tayyor bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, oltita medal oldik, demak, hamma ishimiz mukammal bo‘ldi deb aytish ham to‘g‘ri bo‘lmas. Ayrim vaznlarda imkoniyatlarimiz yuqoriroq edi. Musobaqadan keyin har bir bellashuv tahlil qilinadi: qayerda taktik xato qilindi, qayerda raqibga moslasha olmadik, qaysi sportchiga jismoniy yoki funksional tayyorgarlikni kuchaytirish zarur — bularning barchasi ko‘rib chiqiladi.

Biz uchun yana bir muhim vazifa — raqobatbardosh zaxirani kuchaytirish. Bir vaznda faqat bitta kuchli polvonga bog‘lanib qolish mumkin emas. Terma jamoaga kirishning o‘zida raqobat kuchli bo‘lsa, xalqaro musobaqaga chiqqan sportchining saviyasi ham oshadi. Kurashning xalqaro miqyosda ommalashib borayotgani bizga qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi. Endi vazifa faqat bugungi ustunlikni saqlab qolish emas, keyingi avlodni ham shu darajada tayyorlashdan iborat.

— Osiyo o‘yinlarining o‘ziga xos jihati shundaki, bu yerda deyarli har bir bosqichda kuchli raqibga duch kelish mumkin, — deydi tennis bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi, Osiyo o‘yinlari sovrindori Humoyun Sultonov. — Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Eron, Qozog‘iston kabi davlatlar vakillari musobaqaga juda yaxshi tayyorgarlik bilan keladi. Shuning uchun faqat jismoniy tayyorgarlikning o‘zi yetarli emas. Raqibni o‘rganish, musobaqa davomida vaziyatga qarab harakat qilish ham katta ahamiyatga ega. Biz ham Yaponiyaga ketishdan oldin shu jihatlarga jiddiy e’tibor qaratdik. Albatta, sportchi musobaqaga chempion bo‘lish uchun boradi. Sovrinli o‘rin ham natija, lekin bellashuvdan keyin qaysi jihatlarda imkoniyatni to‘liq ishlata olmaganingizni ham ko‘rasiz. Men uchun Aichi – Nagoyadagi ishtirok bu borada ham katta tajriba bo‘ldi. Nufuzli musobaqada bitta kichik xato yoki bir necha soniya e’tiborsizlik natijaga ta’sir qilishi mumkin. Endi shu jihatlarni murabbiylar bilan tahlil qilib, keyingi musobaqalarga tayyorgarlik ko‘ramiz. Terma jamoamizning umumiy natijasi ham yomon emas — 70 ta medal olindi, ko‘plab sportchilarimiz finalgacha yetib bordi. Lekin sportda kechagi natija bilan yashab bo‘lmaydi. Oldimizda yana xalqaro musobaqalar, eng muhimi, olimpiada sikli bor. Shuning uchun bu natijani keyingi bosqichga o‘tishdagi tajriba sifatida qabul qilish kerak.

O‘zbekiston sportida natija keltirayotgan yo‘nalishlar doirasi kengaymoqda. Ilgari yirik musobaqalar oldidan asosiy umid bir necha an’anaviy sport turiga bog‘langan bo‘lsa, endilikda turli yo‘nalishlarda xalqaro darajada raqobat qila oladigan sportchilar yetishib chiqyapti. Bu esa alohida chempionlarni tayyorlashdan kuchli sport maktablarini shakllantirishga o‘tish jarayoni uchun muhim ko‘rsatkich. Chunki katta sportda bitta avlodning muvaffaqiyati ma’lum davr uchun natija beradi, muntazam ravishda yangi nomlar paydo bo‘lishi esa ulkan tizimning barqaror ishlayotganini ko‘rsatadi.

Osiyo miqyosida yetakchilikka da’vo qilayotgan sportchi yoki jamoa uchun asosiy vazifa bir musobaqada yuqori cho‘qqiga chiqish emas, shu darajada barqaror qolishdir. Buning uchun sportchining jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda musobaqa amaliyoti, raqibni tahlil qilish, tiklanish jarayoni, sport tibbiyoti, psixologiya va murabbiylik qarorlarining sifati ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu ma’noda, Osiyo o‘yinlari Los-Anjeles olimpiadasiga tayyorgarlikning navbatdagi bosqichi bo‘ldi. To‘g‘ri, olimpiadagacha hali vaqt bor va bu davrda sportchilarning formasi ham, vazn toifalaridagi raqobat ham, xalqaro kuchlar nisbati ham o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun bugungi medalni ikki yildan keyingi olimpiada medaliga tenglashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Ammo hozirning o‘zida qaysi yo‘nalishlarda imkoniyat katta ekani, qayerda raqobat muhiti yetarli darajada shakllangani va qaysi nuqtalar ustida jiddiy ishlash kerakligini belgilab olish mumkin.

Endi asosiy masala Aichi–Nagoyadagi muvaffaqiyatdan qanchalik to‘g‘ri foydalanishda. Championlarning natijasini saqlab qolish bilan birga ular ortidan kelayotgan sportchilarni ham katta maydonga olib chiqish, har bir vazn va yo‘nalishda munosib raqobat muhitini yaratish muhim.

Osiyo o‘yinlari O‘zbekiston sportining bugungi imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Endi navbat shu imkoniyatlarni keyingi ikki yilda yanada ko‘paytirish, kuchli yo‘nalishlarda ustunlikni saqlash, ortda qolayotgan turlarda aniq xulosa chiqarishda. Agar shu vazifalar to‘g‘ri bajarilsa, Aichi – Nagoyada qo‘lga kiritilgan medallarning asl qiymati ko‘rinadi. Zero, zabt etilgan bir marradan chiqariladigan xulosa keyingi — yanada yuksak marralar uchun imkoniyat va kamchiliklarni baholab olish imkonini ham beradi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.